

TURAYEVA GULNOZ ERGASHEVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI
SOG‘LOM MA NAVIY-AXLOQIY
TARBIYALASHDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**



ISBN: 978-9910-9507-6-6



8872



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

TURAYEVA GULNOZ ERGASHEVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI
SOG‘LOM MA‘NAVIY-AXLOQIY
TARBIYALASHDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(Monografiya)**

Termiz – 2023

UDK. 372.126:681.142.37

ББК: 74.00

T 92

Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Monografiya. G.E.Turayeva – Termiz.: “TerDU NMM” nashriyoti, 2023. -116 b.

Mazkur monografiyada bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalarining tutgan o'rnini, ular tarbiyasida yuzaga kelayotgan ma'naviy-axloqiy muammolar tahlili o'z aksini topgan. Shuningdek, internet tarmog'ining talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri, ularning oldini olish choralari hamda olib borilgan tadqiqot ishi natijalarining mazmuni yoritilgan.

Ushbu monografiyadan pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchilari, talabalar, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchi-izlanuvchilar hamda keng jamoatchilik ham foydalanishlari mumkin.

Monografiya Termiz davlat universiteti Kengashining 2023 yil 7-oktyabrdagi №.2-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir:

Mahmudov Yusup G'aniyevich – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Shabbazova Dilfuza Ro'ziqulovna - Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Djumayeva Xulkarhon Muhammadjonovna – Termiz davlat universiteti “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasida v.b. dotsenti, p.f.f.d

ISBN: 978-9910-9507-6-6

© Turayeva Gulnoz Ergashevna

© “IRFON-PRINT” nashriyoti, 2023-y.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya tizimi hamda insoniyat turmush tarzining ajralmas qismi tarzida namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni elektron ta'lim muhitining yaratilganligi taraqqiyotning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishning strategik va taktik maqsadlarini belgilash va ularga erishish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, asl qadriyatlar asosida shaxs ma'naviyati hamda dunyoqarashini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan dolzarb vazifaga aylandi.

Dunyo mamlakatlarida aniq, tabiiy va texnika fanlarining o'qitilish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan keng qamrovda foydalanish, mushohada va tasavvurlarga asoslangan jarayonlarni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'zlashtirish ko'rsatkichlari sifati va samaradorligini ko'tarishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu o'z navbatida yoshlarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalarini shakllantirish, jamiyatdagi voqea va hodisalarga ijtimoiy faol munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni amalga oshirishga bevosita bog'liq holda amalga oshmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda, bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom tarbiyalashga oid mashg'ulotlarni tashkil etishning motivatsiyali, maqsadli, konseptual zamonaviy shakl va metodlari yuzaga kelmoqda. "Sifatli ta'lim-tarbiya xizmatlari imkoniyatlarini kuchaytirish, mehnat bozorining zamonaviy infratuzilmaviy ehtiyojlariga xos va mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalari bilan ta'minlash"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada, keng foydalanilayotgan amaliy ishlardan biri – bu kompyuterda maxsus dasturlar yordamida kuzatilishi murakkab, qiyin tasavvur qilinadigan hodisa va jarayonlarni elektron darsliklar, animatsiyalar, taqdimotlar ko'rinishida ko'rgazmali tushuntirish orqali bo'lajak

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF – 4947-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-y., 6-son. 70-modda, 23-son. 442-modda.

o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim-tarbiyani tashkil etish zaruriyati mavjud. Mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga, ularni milliy tarixiy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yo'nalishlarda keng qamrovli tizimli ishlar amalga oshirish, ayniqsa xulq, odob-axloqni ta'minlashga xizmat qiladigan kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarning ma'naviy-axloqiy jihatlariga ilmiy izlanishlarni keng qamrovli amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi 1059-son Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-1775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda axborot texnologiyalarini qo'llash nazariyasi va amaliyotini joriy etish muammolarini o'rganish borasidagi tadqiqot ishlari mamlakatimizda A.A.Abduqodirov, M.Aripov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, R.J.Ishmuxamedov, Q.T.Olimov, D.Saydahmedova, N.Taylaqov, O.H.To'raqulov, B.O.Ernazarova, M.N.Tsoy, A.G'.Hayitovlar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlarida axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonda qo'llash masalalari A.Andreev, V.M.Kolikova, A.Koryakina, O.Osipova, V.Paramzina, E.Polat, A.V.Smirnov, E.S.Cherkasova, A.Shabanov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy davlatlarda axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonga joriy qilish bo'yicha tadqiqot ishlari B.Antonokas, J.Daniel, M.Dougiamas, B.Holmberg, C.S.Lanyi, D.Moursund, T.Vaughan, R.Zapponelar tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha predmetli-metodik tayyorgarlik darajasi sifati va samaradorligini oshirishning imkoniyatlari pedagogik dasturiy vositalar asosida takomillashtirish bosqichlari tashkiliy-tuzilmaviy komponentlarining didaktik imkoniyatlari integrativ yondashuv asosida tashkil etish xususiyatlariga bog'liq holda aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda elektron dasturiy vositalardan foydalanish samaradorligini, o'zaro bog'liqlik darajasini belgilovchi kasbiy pedagogik refleksiya ko'rsatkichlari (motivatsiyali, qadriyatli, kognitiv – faoliyatli, shaxsiy – refleksiv) hamda psixologik va motivatsiyali, faoliyatli yondashuvlar asosida takomillashtirish;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modelining tuzilishi (kognitiv, texnologik, kreativ, konstruktiv) va bosqich (konseptual, texnologik, operatsion, amaliy)lari tayanch, texnologik hamda amaliy malaka darajasini baholash mezonlari improvizatsiya va refleksivlik prinsiplariga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqish;

bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanib odob-axloq sifatlarini (imon, e'tiqod, sabr, qanoat, muhabbat, sadoqat, samimiyat, adolat) oshirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tuzilmasi muhaddis olimlarning ilmiy merosidagi pedagogik ta'sir vositalari tarkibini (hamkorlik, modulli, loyihalovchi, rivojlantiruvchi, faoliyatli) amaliyotga joriy etish mexanizmiga kiritish orqali takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlari Termiz, Buxoro, Andijon davlat universitetlaridan jami 361 nafar talaba jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, ilmiy-metodik ishlar, ilmiy va o'quv adabiyotlari tahlili, pedagogik kuzatuv, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-texnik ma'lumotlarning nazariy, qiyosiy tahlili, tajriba-sinov, so'rovnoma, test, suhbat, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ATlarining takomillashtirilgan mazmuni ishlab chiqilganligi asosida, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratilganligi, ularni o'zlashtirish ko'rsatkichlarni oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid yaratilgan o'quv-metodik ta'minoti, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni yanada takomillashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, o'quv dasturlari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda, bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

I BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SOG‘LOM MA‘NAViy-AXLOQiy TARBIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishning tadrijiy, tarixiy shakllanishi, rivojlanishi

Ta‘lim-tarbiyaga oid axborot texnologiyalarining tadrijiy, tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va uning zamonaviy tuzilmasi bunyod bo‘lguniga qadar ancha vaqt o‘tdi. Bu vaqt davomida uning ta‘riflari turli ko‘rinish va mazmun kasb etdi.

Axborot yoki informatsiya – bu olamdagi butun borliq, unda ro‘y beradigan xodisa va jarayonlar haqidagi xabar va ma‘lumotlar. Informatsiya so‘zi “lotincha” “informatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuntirish”, “tavsiflash” degan ma‘noni anglatadi. Axborot inson nutqida, kitobdagi matnlarda, musavvir tasvirida va boshqalarda mavjud.

Inson turli a‘zolari yordamida axborotlarni qabul qiladi, ongi bilan idrok etadi, xotirasida saqlaydi, boshqalarga uzatadi. Umuman, insonning kundalik hayoti va faoliyati turli xil axborotlarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va uzatish bilan bog‘liq.

Tarbiya insonning insonligini ta‘minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar sog‘lom ma‘naviy-axloqiy tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi.

Tarbiya – o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e‘tiqod – burch va mas‘uliyatni, jamiyat kishilariga xos bo‘lgan ma‘naviy – axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni belgilaydi. Shuningdek, keng ma‘nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta‘lim va ma‘lumot olish ham kiradi [86]. Tor ma‘noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiya muassasalari hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar. Ta‘lim va ma‘lumot olish tor ma‘nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta‘lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta‘lim va ma‘lumot olish jarayonida

shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmasdan, balki ma‘naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Boshqacharoq aytganda, tarbiya kishilarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga qaratilgan barcha ta‘sirler majmui.

Shunday ekan, bugun biz bir qator turli xususiyatlarga boy davrda yashayotgan ekanmiz, talaba-yoshlarimiz tarbiyasiga ta‘sir etadigan elementlarni anglab olishimiz juda zarur. Eng avvalo, ta‘sirler – oilada, ta‘lim muassasalarida, ijtimoiy, siyosiy, nodavlat tashkilotlarida, ommaviy axborot vositalari orqali, ijtimoiy tarmoqlar, radio, televidenie orqali bo‘lib, u tarbiyaga o‘z ishing kuchli ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Tarbiya – jiddiy, uzoq muddatli, hatto doimiy murakkab jarayon. Muayyan odob doirasida bo‘lish, yaxshi odatlarga o‘rganish, yaxshi nom qoldirishga intilish insoniyatga xos xususiyatlar.

Tarbiya – ta‘lim bilan uzviy bog‘langan, bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ya‘ni ta‘lim tarbiyaning muhim vositasi bo‘lib, ko‘p maqsad va vazifalar u orqali amalga oshiriladi. Chunki ilm jaholatga qarshi kurashuvchi eng asosiy vosita. U ongsizlikni yo‘qqa chiqarib, kishini tafakkur qilish sari etaklaydi. Shu sababdan Qozizoda Rumiyl shunday deganlar: “Bir dalil bilan qirq olimni engdim, lekin qirq dalil bilan bir ilmsiz, nodonni engolmadim.” Demak, ilmsizlik jamiyat hayotida eng yomon illatlarning shakllanishiga olib keluvchi salbiy hodisa. Shu sababdan ajdodlarimizdan qolgan boy ma‘naviy meroslarimizda tarbiya masalasi asosiy o‘rin egallaydi va unda ilmga alohida e‘tibor qaratiladi.

Sog‘lom ma‘naviy-axloqiy tarbiya - *insonning g‘oyaviy, siyosiy, axloqiy, ma‘naviy, ma‘rifiy, mafkuraviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tarbiya tizimi, shuningdek, tarbiya natijasida insonga singdirilgan xislat, fazilat, sifat, odob-axloqlar majmuasi (muallif ta‘rifi).*

Sog‘lom ma‘naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish, ma‘naviy-psixologik bilim saviyasini oshirish, shaxsda sog‘lom dunyoqarashni shakllashtirishni, sog‘lom tafakkurning yuzaga kelishini ta‘minlaydi.

Diniy ilmlardan uzoq oilalarda kamol topgan ayrim yoshlar oiladagi ota-onaning o‘rnini, “Kattaga hurmat, kichikka izzat” degan narsani, silai rahm va Vatanga muhabbatni to‘g‘ri, halol va pok yashash kerakligini unutib qo‘ydi. Ayrim ilmsiz, tarbiyasiz yoshlar o‘rtasida kibr, takabburlik, dangasalik, ishyoqmaslik, buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik, shafqatsizlik, qotillik, bahayolik paydo bo‘ldi. Hamma narsa – mansab, pul bilan o‘lchanib boshlandi, ommaviy axborot vositalari orqali insonlar qulog‘iga ertayu kech musiqa-qo‘shiq qo‘yilib va quyilib, xalq chet el seriallari orqali jiddiy muammolardan chalg‘itildi.

XX asrning 90-yillariga kelib, sobiq Sovet tuzumi va uning Kommunizm qurish g'oyalari yaroqsiz bo'lib chiqdi. Jamiyatdagi chuqur inqirozdan norozi bo'lgan rus xalqi Moskva davlat to'ntarishini amalga oshirdi. Natijada, sobiq Sovet Ittifoqidek katta bir qudratli davlat parchalanib ketdi.

74 yil hukm surgan sobiq Markaz o'zi bilan o'zi ovora bo'lib turgan tahlikali bir paytda, hech bir qurbonlarsiz, 1991 yilda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi!

O'sha davr senatorlari tomonidan e'lon qilingan bu tarixiy voqea, muqaddas Islom dinimizning millatimizga qaytarilish masalasi, tilimizga "Davlat tili" maqomining berilishi, kabi qator tarixiy hodisalar o'zbek davlatchiligi tarixidagi jahonshumul voqealar ekanligi aniq!

Oxirgi chorak asr mobaynida mamlakatimizdagi ma'naviyat-ma'rifat masalalari bilan shug'ullanib yurgan qator ziyolilar mutaxassis olimlar Ma'naviyat nima? – degan savolga javob izlab, ma'naviyat-ma'rifat sohasida ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Bugungi kunda ham markaziy televidenie orqali ma'naviyat-ma'rifat masalalariga bag'ishlab ko'rsatuvlar tashkil qilinmoqda, ommaviy axborot vositalarida, ko'plab maqola va mulohazalar e'lon qilinmoqda. Lekin shu davr ichida mamlakatimizda ma'naviyat tushunchasiga mukammal bir ta'rifning shakllanmaganligi aniq bo'lib qoldi. Balki bu uning keng qamrovli, murakkab tushuncha ekanligidan dalolat berar?!

E. Yusupov: "Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, imoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizim" [107].

M. Imomnazarov: "Ma'naviyat-inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etgan haqiqat nuri, deyilgan ta'rif darhaqiqat, so'fiyona ramziy ta'rifdir, zotan boshqacha ta'rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo'yadi" [32] – deganlarida, albatta, inson qalbiga tushgan Haq taoloning nur-ziyosini, ya'ni ilm-ma'rifatini nazarda tutganlar, deb o'ylaymiz.

Buni qarangi, chorak asrdan ortiq vaqt davomida tinmay ma'naviyat deb o'qib-o'qitib kelmoqdamiz, lekin haligacha mutaxassislar tomonidan ma'naviyat tushunchasiga mukammal, yakuniy ta'rifning o'zi berilmagan ekan. Darslik mualliflari bu ta'rifning eng oxirgi, qiyomiga etgan mukammal ta'rif emasligini o'zlari ham tan olib yozishmoqda.

Ya.A.Nurumbekova o'zining "Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tayyorlash tizimini takomillashtirish" deb nomlangan tadqiqot ishida tarbiya texnologiyasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Bizningcha,

bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga ma'naviy – axloqiy tayyorlashni takomillashtirish tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirishda rioya qilinishi zarur bo'lgan pedagogik talab, yo'l-yo'riqlar, omillar, shart-sharoitlar hamda metodlarni mukammal amalga oshirishdir. Tarbiya texnologiyasi esa, muayyan g'oya va maqsad asosida o'qituvchitalabada zarur sifat hamda fazilatlarni shakllantirish jarayonidan iborat" [110, 25b].

Ch.A.Sabirova o'zining tadqiqot ishida: "Bo'lajak o'qituvchilarni to'laqonli axloqiy-estetik tarbiyalash uchun nafaqat ma'naviy-estetik, axloqiy, insonparvar-axloqiy asoslar, balki yuksak ma'naviy, estetik salohiyatga ega material – halq og'zaki ijodiyoti, adabiyot she'riyat, tasviriy san'at va albatta, pedagogik meros, tarixiy-madaniy yodgorliklar, milliy maishiy an'analar zarur" [111, 21b] – deb ta'kidlagan.

Ma'naviyat so'ziga chorak asrlik, mukammal va aniq ta'rif quyidagicha bo'ladi: Ma'naviyat – insoniyatga bildirilgan ezgu Kalom, ibratli odob-axloq va bebaho qadriyatlar yig'indisi.

Millat ma'naviyati – millatning ming yillar davomida to'plagan ilmu ma'rifati, milliy marosim va urf-odatlar, mahalla va oila ma'naviyati, odob-axloq haqidagi tasavvur va tushunchalari yig'indisi [33].

Yuksak ma'naviyatli inson – dono va Hakim sifatli zot – Alloh taolo bildirgan ilmu ma'rifat, madaniyat, mustaqil fikr, keng dunyoqarash, ibratli xulq-atvor egasi.

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tar ekan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi.

Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari ham bor. Bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o'rnida dinning ahamiyati katta. Islomda olijanob axloqning eng muhim tushunchalari ta'riflanib, insoniyatni ularga amal qilish sari undaladi. Bular – erkin (yaxshilik qilish), kechirimlik bo'lish, sabr-qanoat, rostgo'ylik, shirinso'zlik, ota-onani, o'zidan katta yoshdagilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalar.

Axloq va ma'naviyat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Barkamol ma'naviyat barkamol axloqni shakllantiradi.

I.2-§. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonga qo'llashning psixologik – pedagogik asoslari

Davr talabiga javob beradigan, ta'lim dasturi mazmuniga mos o'quv adabiyotlari, o'qitish metodlari va metodikasini ishlab chiqish, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'inlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash vazifalarini qo'ydi [120].

XXI asr nafaqat fan-texnika axborotlari ko'lamining keskin ortishi bilan, balki ta'lim texnologiyalarining sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganligi bilan ham farqlanadi. Shu bois fanning eng so'nggi yutuqlarini o'ziga qamrab oluvchi ta'lim-tarbiya mazmuni va sifati ham tubdan yangilanib borilishi talab etiladi.

A.A.Raximov o'zining "Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari" mavzusidagi tadqiqot ishida "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, O'zbekiston halqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oya ekanligini har bir talaba chuqur his etishi uni mustahkamlashda faol ishtirok etishni ta'minlash oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning eng asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham talaba-yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni berish, ko'nikma va malaka hosil qilish muhim masalalardan biridir" [112,20b] - deya ta'kidlagan.

Shuningdek, ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarning sog'lom turmush tarzi ham alohida ahamiyatga ega. N.M.Kenjaboeva "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirish tizimi" mavzusidagi tadqiqot ishida yoshlarning reproduktiv madaniyatini takomillashtirish to'g'risida to'xtalib o'tgan "Shu ma'noda yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ular ongida "Sog'lom turmush tarzi – sog'lom oila, sog'lom oila bu sog'lom farzand, baxtli kelajakdir" tasavvurini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning reproduktiv madaniyatini takomillashtirish bu yo'nalishdagi islohatlarning asosiy vazifalaridan sanaladi" [113, 15b].

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish texnologiyalari rivojlanishining

jadallashuvi fan-texnika axborotlarining rivojiga tub yangilanishlar olib kirdi. Natijada, xalq xo'jaligini modernizatsiyalash tezlashdi, sanoat kompyuterlashmoqda, ta'lim-tarbiya tizimiga Internet kirib keldi, mashg'ulotlar zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etilmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan OTMdagi mashg'ulotlar jarayonida shunday o'qitish metodlarini tatbiq etish joizki, ular oxir-oqibatda talabalarni mustaqil o'qishga, o'zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitiga tez moslashish ko'nikmalarini shakllantirsin, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirsin.

Ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati A.Abduqodirov tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda kompyuterning "Ta'lim samaradorligini oshirishdagi qudratli vosita" sifatida qaralishiga [117, 69b] asosiy urg'u berilgan, shuningdek, insonning psixologik ma'noda ravnaq topgan subyekt ekanligi, kompyuterlar hech qachon o'qituvchining o'rnini bosmasligi va bosa olmasligi, binobarin, uning mehnatini hamda talabalar va maktab o'quvchilarining faoliyatini avtomatlashtira olmasligini qayd etadi. Psixologiya sohasidagi ko'plab tadqiqotlarda ko'rish orqali o'rganish va tahlillash bu vazifaning eshitish orqali amalga oshirilishiga nisbatan sezilarli darajada ko'proq axborot qabul qilinishini ta'minlashi isbotlab berildi.

Inson ko'rish orqali har soniyada millionlab bit miqdorida axborot qabul qilishga qodir, eshitish orqali – bir necha o'n ming, xolos. Ko'z vositasida qabul qilingan axborot yorqinroq bo'lishi va xotirada yaxshiroq saqlanishi isbotlangan. O'zlashtirishning nisbatan yuqoriroq darajasiga erishish uchun ta'lim jarayonida o'qituvchining bayoni bilan o'quvchilarga taqdim etilayotgan tasvirlar o'rtasida muvofiqlik, bog'liqlik va uyg'unlik bo'lishini ta'minlash lozim [119].

Ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasi uni idrok qilish bilan bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki inson nutq shaklidagi ma'lumotning 15% qismini, vizual ko'rinishdagi ma'lumotning 25% qismini yodlab qoladi. Agar ikki shakl ham birgalikda taqdim qilinsa u holda ma'lumotni 65% qismini qabul qilish mumkin. Kompyuterning axborot texnologiyalarini joriy etish vositasi sifatidagi imkoniyat va afzalliklari shundaki, u bir vaqtning o'zida ko'rish va eshitish orqali axborot qabul qilish imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida bilimlarni o'zlashtirish jarayonining dastlabki bosqichlari, ya'ni his etish va qabul qilishning samarali kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sezgi organlari orqali qabul qilingan signallar mantiqiy ishlovga olinadi va abstrakt tafakkur sohasiga yuboriladi. Va buning yakunida sezgi organlari muhokama qilish va xulosa yasash jarayonlariga kirishadi. Natijada, bilish jarayonining navbatdagi bosqichi – idrok etishga o'tish uchun zamin yaratiladi. Mazkur idrok etish bosqichida samarali AT vositalarini qo'llash tufayli asosiy tushunchalar, dalillar, xulosalar hamda xulosalar dalillar yordamida asoslash malakasini shakllantirish hamda o'zlashtirishga, o'zaro sabab-oqibatli munosabatlar o'rnatish kabilarga yordam beradi. Psixologlar va didaktika sohasi mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, kompyuter texnologiyalariga xos bo'lgan audiovizual imkoniyatlar idrok etish bosqichida sodir bo'ladigan fikrlash jarayonlari uchun zarur bo'ladigan shart-sharoitlarni yaratishga ta'sir etadi, shuningdek, ta'lim olish (o'rganish) jarayoning mantiqiy yakuni hisoblangan yod olishni oson va samarali kechishini ta'minlaydi: ta'lim oluvchi tayanch signallar yordamida o'rganilayotgan materiallar orasidan mantiqiy birliklarni tez va o'ziga qulay tarzda anglab oladi. O'quv jarayonida ATdan foydalanish bir qator hissiy ta'sirlarga ham ega bo'lib, u ta'lim oluvchilarning asosiy e'tiborini taqdim etilayotgan o'quv materialining mazmuniy tarkibiga qaratilishiga ko'maklashadi, qiziqish uyg'otadi va idrok etish davomida emotsional munosabatni yuzaga keltiradi. Butun o'quv-tarbiya jarayonlari davomida diqqatni muayyan maromda saqlab turishga erishish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. K.D. Ushinskiy ham ta'lim oluvchining diqqat-e'tibori tarbiyaning muvaffaqiyatli va ta'limning samarali bo'lishini ta'minlovchi muhim faktorlardan biri ekanligini qayd etgan. Shuningdek, u diqqat-e'tiborni bir maromda saqlashning vositalarini ham ko'rsatib o'tadi. Olimning fikricha, taassurotning kuchayishi, diqqatni jamlash, xayoliylikka qarshi choralar ko'rish, o'quv materialining qiziqarli ekanligi kabi omillar ta'lim oluvchida diqqatning bir maromda bo'lishini ta'minlaydi. K.D.Ushinskiy keltirgan to'rtta vositadan uchasi AT uchun xos hisoblanadi. AT vositalari keng qamrovli ta'sir va ifoda imkoniyatlariga ega bo'lgan holda ta'lim oluvchida taassurot uyg'onishiga yordam beradi.

Psixologlarning qayd etishlariga ko'ra, kompyuterdan foydalanish davomida ta'lim oluvchining ixtiyorsiz diqqat-e'tibori ham ortadi. Masalan, kompyuter monitorida videoaxborotlarning tez-tez almashib turishi ta'lim oluvchidan doimiy e'tibor talab qiladi: klaviatura tugmasi bosilishi bilan shu zumdayoq kompyuter tomonidan "yuzaga qalqib chiqadigan menyu" yoki interfaol dialog ko'rinishidagi javob reaksiyasining sodir bo'lishiga olib keladi. Pedagogika va psixologiya

sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompyuter ta'lim oluvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishini rag'batlantiradi va o'zlashtirilgan bilimlarning idrok etilishi hamda ongli ravishda anglab olinishi uchun imkoniyatlar yaratadi [119]. Grafik imkoniyatlari talabga monitorda rasmlar chizish, diagrammalar va grafiklar yasash, ularni shu vaqtning o'zidayoq ko'chirib olish, turli ob'ektlarning modelini yaratish, modelni ob'ektning asl nusxasi bilan taqqoslash kabi imkoniyatlar taqdim etadi. Shuningdek, ta'lim oluvchi atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisalarni modellashtirishi va ularga ta'sir etuvchi faktorlarning kuchini bashorat qilishi ham mumkin bo'ladi. Monitordagi ovoqli timsollar vositasida olingan bilimlar ta'lim oluvchi bilishning anglash va nazariy xulosalar chiqarish bosqichiga ko'tarilishi uchun zamin yaratadi. AT ashyoviy va tasviriy ko'rgazmali vositalardan tashqari, mantiqiy ko'rgazmalilik bilan ham ta'minlanadi. Mantiqiy ko'rgazmalilik monitorda yozma nutq shaklida namoyon bo'ladigan matnli tavsiflar, tasniflangan sxemalar, tushunchalar o'rtasidagi nisbatlar sxemasi, aylanalik sxemalar kabilarni o'z ichiga oladi. Bunday ko'rgazmalilik tushunchalar, fikrlar, mantiqiy birliklarga ramzilik bag'ishlashni nazarda tutadi. AT vositalari mantiqiy ko'rgazmalilikni dinamik shaklda va o'rganishning individual tartibiga moslashtirilgan holda taqdim etishi mumkin. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, AT vositalaridan oqilona foydalanish pedagogik jarayonning har bir bosqichida ijobiy samara berishi mumkin. Xususan:

- ta'lim oluvchilarga axborot taqdim etilish bosqichida;
- interfaol ta'sirlashuvlar davomida o'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichida;
- o'zlashtirilgan materiallar (bilim, malaka va ko'nikmalar)ni takrorlash va mustahkamlash bosqichida;
- oraliq va yakuniy nazoratlar hamda ta'lim oluvchining o'z-o'zini nazorat qilishida;
- o'quv materiallarini hajm va mazmun jihatdan takomillashtirish, tizimlash va tasniflash orqali ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish bosqichida va shu kabilar.

Ammo shu bilan bir qatorda ta'lim jarayonlarida AT vositalaridan foydalanish qator salbiy ta'sirga ega ekanligini ham unutmaslik lozim. Bu salbiy ta'sir ta'lim oluvchining uzoq muddat monitor qarshisida qolib ketishi bilan bog'liqdir. Mazkur ta'sirni chetlab o'tish yoki uni mumkin qadar kamaytirish uchun kompyuterdan o'qish jarayonida foydalanishning ergonomik me'yorlariga rioya qilish talab etiladi.

Ta'lim jarayonida ATdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari. ATdan

foydalanish o'quv jarayonlarining samaradorlik darajasini oshirish va ta'lim oluvchilar uchun har xil faoliyat turlarini tashkil etish imkonini beradi. Jumladan: 1) axborotli-o'quv faoliyati; 2) o'quv-o'yin faoliyati; 3) tajriba va tadqiqotchilik faoliyati; 4) mustaqil faoliyat.

Mazkur faoliyat turlari o'qituvchi va ta'lim oluvchilar tomonidan ATning bilish va o'zlikni anglash, mustaqil tasavvur hosil qilish, mavjud axborotlarni bilimga aylantirish, tashqi olamni kashf etishda o'zi uchun yangiliklarni anglash kabi ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi vosita sifatida faol qo'llanilishini nazarda tutadi. O'quv jarayonida ATning qo'llanilishi ta'limning an'anaviy metod va shakllarini takomillashtirish bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarni shaxsga yo'naltirilganlik yondashuvi asosida o'qitishning metodikasini joriy etishga ham qaratiladi [123]. Yuqorida sanab o'tilgan o'quv faoliyati turlarini tashkil qilish uchun o'qituvchi AT vositalaridan mohirona foydalanish va ularni o'qitish metodikasiga joriy etish amaliyotini ham o'zlashtirishi talab etiladi.

Ta'lim jarayonida ATdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1) xalqaro va mahalliy tarmoqlarda turli ko'rinisdagi axborotlarni maqsadli axtarish, ularni qayd etish, yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tarqatish; 2) tajriba natijalariga ishlov berish; 3) mavjud ob'ektlarni (o'quv robotlarini) boshqarishni amalga oshirish; 4) virtual modellar ustida kompyuter tajribalarini tashkil etish va o'tkazish; 5) o'quv faoliyati tashkil etilishini avtomatik tarzda nazorat qilish; 6) turli mazmundagi pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqish; 7) metodik va didaktik materiallar ishlab chiqish; 8) o'quv-bilish maqsadlariga qaratilgan web-saytlar yaratish; 9) ta'lim oluvchilarning intellektual dam olishlarini tashkil etish.

AT, asosan, metodik (dars ishlanmalari, uslubiy tavsiyalar) va didaktik (tasvirli, qiziqarli materiallar, tarqatma materiallar va shu kabilar) materiallar ishlab chiqishda, shuningdek, pedagogik dasturiy vositalar (PDV) ishlab chiqish, intellektual o'yinlar tashkil etish kabi yo'nalishlarda kengroq qo'llaniladi [120].

AKTni qo'llash uchun qulay pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratishga yaxlitlik konsepsiyasi doirasida erishish mumkin. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, axborotli ta'lim muhiti yaratishning samarali variantini axtarish zamirida akmeologik yondashuv yotadi. Akmeologik yondashuv bilishning barcha bosqichlarida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborotlarning kamroq kirishini, har bir o'quvchi va o'qituvchi o'z ijodiy qobiliyatini rivojlantirish orqali axborotni bilimga aylantirishini ko'zda tutadi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun ta'lim muassasasida quyidagi pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi zarur:

- ta'lim muassasasida AKTni qo'llashning integrativ pedagogik-psixologik modeli ishlab chiqilishi;
- AKTni "o'qituvchi-talaba" tizimida qo'llashning modeli, texnologiyasi va didaktik tamoyillari belgilanishi;
- AKTdan foydalanuvchi o'qituvchining shaxsiy-pedagogik tayyorgarligi yetarli darajada bo'lishi;
- AKTdan foydalanish bo'yicha ta'lim muassasasi uchun optimal bo'lgan tashkiliy chora-tadbirlar tizimi belgilanishi.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadlar hamda ilgari surilgan farazdan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Ta'lim muassasasida AKTdan foydalanishning pedagogik-psixologik tahlili uchun nazariy-metodologik shart-sharoitlarni oydinlashtirish.

2. Ta'lim muassasasida AKTdan foydalanishning nazariy modelini ilmiy asoslab berish.

3. Ta'lim muassasasida AKTni qo'llashning samaradorlik darajasini o'rganish va baholashning ilmiy-amaliy vositalarini ishlab chiqish.

4. Ta'lim muassasasida AKTdan samarali foydalanishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini belgilash va unga ta'sir etuvchi faktorlarni aniqlash.

O'quvchi kompyuter monitorida, shuningdek, multimedia proektorida yordamida ko'pgina hodisa va jarayonlarni animatsion namoyish etishi hamda innovatsion o'qitish metodini takomillashtirishi mumkin. Har bir fan o'qituvchisi o'zining mashg'ulotini rejalashtirishda kompyuter o'quv dasturidan to'g'ri foydalanishi kerak. Chunki kompyuterlarni har qanday dars yoki mashg'ulotda qo'llash mumkin. Shuning uchun o'qituvchi uni rejalashtirish va ijobiy natijaga erishishida kompyuterdan qachon va qanday foydalanishni bilishi zarur.

Turli fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni kompyuterlashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Turli fanlarni o'qitishning shunday o'ziga xos tomonlari borki, unda mega dunyo (Koinot miqyosidagi), makro va mikro dunyoda yuz beradigan hodisa va voqealar o'rganiladi. Ko'p hollarda ularni tabiiy sharoitda kuzatishning iloji bo'lmaydi. An'anaviy o'qitish usulida bunday jarayonlar rasmlar, sxemalar orqali og'zaki tarzda tushuntiriladi.

Talabalarda esa bunday usulda berilgan bilimlarning o'zlashtirilish darajasi unchalik yuqori bo'lmaydi va uni uzoq vaqt yodda saqlab qolish ham mushkul bo'ladi. Bu kabi muammolarni hal etish uchun hozirda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Mazkur muammolarni hal qilish o'qituvchiga, uning pedagogik hamda ilmiy malakasiga, mahoratini amalda samarali foydalana oladigan qilib tayyorlashga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirgi paytda o'qituvchilar yangicha o'qitish metodlariga ega bo'lishi hamda ularning kasbiy faoliyatlariga metodik va texnikaviy jihatdan yordam ko'rsatish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Yangicha o'qitish metodlaridan foydalanib mashg'ulot olib borgan tajribali o'qituvchilar talabalarning hodisa va jarayonlarni yetarlicha tasavvur qila olishiga va binobarin ularda kerakli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning shakllanishiga zamin yaratadilar [121].

O'qitish nazariyasiga oid bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kungacha o'qitish, asosan, an'anaviy tushuntirish, ya'ni ko'proq reproduktiv metodiga tayangan holda olib borilgan.

An'anaviy o'qitish metodikasida o'quv materiallari, asosan, matn ko'rinishida ifodalanib, ularni bevosita o'qitish jarayonida namoyish qilish imkoniyati deyarli mavjud emas edi. Bunday ko'rinishda berilayotgan o'quv materiallarini o'zlashtirish talaba tomonidan, asosan, ketma-ket ravishda qabul qilinadi, shu sababli ularni o'zlashtirish va esda saqlab qolish darajasi yuqori bo'lmaydi.

An'anaviy o'qitish metodlari katta hajmdagi ma'lumotlarning batafsil ravishda o'qituvchi tomonidan taqdim etilishiga, berilgan ma'lumotlarni ko'p marta takrorlab o'zlashtirishga, o'quv jarayonida, asosan, reproduktiv metodni qo'llashga va o'qituvchining avtoritar usulda faoliyat ko'rsatishiga asoslangan. An'anaviy o'qitish metodlari asosida turli soha mutaxassislarini tayyorlashda muvaffaqiyatlarga erishildi. Ammo fan-texnika taraqqiyoti zamon va bozor iqtisodiyoti talablari nuqtai nazaridan qaraganda, an'anaviy o'qitish metodlarining kamchiliklari ham namoyon bo'ladi.

An'anaviy o'qitish, metodlarida talabani mustaqil bilim olishga o'rgatishga, tanqidiy fikrlash, tafakkurining rivojlantirishga hamda o'quv jarayonini insonparvarlashtirishga kam e'tibor beriladi. Bugungi kunda har bir fandan shu darajada ko'p ilmiy ma'lumotlar to'planganiki, ularni an'anaviy o'qitish metodlari yordamida o'qitish va o'quv dasturlarida ajratilgan soatlar davomida tinglovchiga etkazishning iloji yo'q.

Hozirda bu muammolarning echimini topishga yo'naltirilgan bir qancha o'qitish metodlari mavjud bo'lib, ular orasida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari asosida o'qitish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlariga gipermatn, gipermedia, grafik va kompyuter ovoz dasturlarini misol qilib keltirish mumkin [85].

Taraqqiy etgan xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarida hamda mamlakatimizning yetakchi ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalari asosidagi jarayon tahlil qilinganda bir nechta yo'nalishlarni ko'rish mumkinligi ko'zga tashlanadi.

Shulardan biri kompyuter modellaridan foydalanish hisoblanadi. Bu yo'nalish o'qitilayotgan fanlar ob'ektlarining tabiiy ko'rinishda ko'rsatish mumkin bo'lmagan ma'lumotlarini ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatida originalning tabiatini aniqlash, uning ichki, tashqi xossalarini va rivojlanish jarayonini kuzatish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi kunda kompyuterda modellashtirish texnologiyasi mavjud bo'lib, uning maqsadi atrofimizni o'rab turgan tabiat, unda ro'y beradigan hodisa, voqealarni va jamiyatdagi o'zgarishlarni anglash, tushunib etish jarayonini zamonaviy usullar vositasida tezlashtirish va sifatli o'zlashtirishdan iborat. Kompyuterda modellashtirish texnologiyasini o'zlashtirish kompyuter tizimlarini (vositachi qurilma sifatida) yaxshi bilishni va unda modellashtirish texnologiyalarini qo'llay olishni talab qiladi.

XX asr oxirlarida yaratilgan yuqori quvvatli Pentium protsessorli kompyuterlarda o'rganilayotgan jarayonlar modellarining turli xil ko'rinishlarini (grafik, diagramma, animatsiya, multiplikatsiya va h.k.) kompyuter monitorida hosil qilish mumkin. Ekrandagi modelni (masalan, rasm eskizini) turli xil darajada (tekislik, fazo bo'yicha) harakatga keltirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, tabiiy sharoitda kuzatib bo'lmaydigan jarayonlarning kompyuter imitatsion modelini yaratish va u asosida mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. Demak, kompyuter imitatsion modellari ma'lumotlardan ongli ravishda bir-biriga to'g'ri keladigan (uyg'un) holda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalangan holda bilimni har xil shakllarda taqdim etish imkoniyatini beradi. Shuning bilan birga kompyuter imitatsion modeli asosida mashg'ulot o'tkazishda faqat o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirishga erishib qolmasdan, balki yaxshi o'zlashtira olmaydigan talabalarning ham yangi bilim olishga bo'lgan intilishlari kuchayadi. Kompyuter imitatsion modeli yordamida o'qitish

talabalarning faoliyatini, o'zlashtirishning sifat ko'rsatgichini oshirishga asos bo'ladi.

Axborot ta'minotining samaradorligi jamiyat a'zolariga zarur bo'ladigan axborotlarning to'la yig'ilganligiga, ularni qayta ishlash sifati darajasiga, saqlash va qidirishning ishonchligiga, axborotni tanlash va tez etkazib berishga bog'liq. Aynan shu kabi samaradorlikka erishish uchun ko'rinib turibdiki, fan-texnika xizmati tarmoqlaridagi xodimlar faoliyatini yangi zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lash kerak bo'ladi. Buning uchun axborot xizmati xodimlarigina emas, balki axborot iste'molchisi ham shu zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olishi talab etiladi.

Talabani shaxsiy xususiyatlarini yoritish va aniqlash (tashxis) masalasi axborot texnologiyasining yanada mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi. Ushbu maqsadlarda o'quv-tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida shaxsning ruhiy (psixologik) tuzilmasi uchun (masalan, psixik jarayonlar, ta'lim olish va xususiyatlar) tanlangan konsepsiyadan foydalanish mumkin. Biroq, sifatlarning o'zini bir qator shart-sharoitlarga muvofiq kelishi lozim bo'lgan tegishli aniqlash (tashxis) tushunchalarida izohlab berish (interpretatsiya qilish) zarur. Ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi: muayyan sifatning boshqalardan aniq farqlanishini ta'minlaydigan bir ma'noli aniqlik; aniqlash (tashxis) jarayonida baholanadigan sifatni aniqlash uchun tegishli vositalarning mavjudligi; shaxsiy fazilat o'lchovlarining ishonchli shkalasi bo'yicha shakllanganlik va sifatlarning turli darajalarini aniqlash imkoniyatlari [108].

Ta'limiy o'zaro ta'sir ko'rsatish uslublari, usullari va vositalarini saralash va oqilona tanlab olish axborot texnologiyasining o'ziga xos vazifasi sifatida ishtirok etadi. Aynan ular ulardan har birining o'ziga xos xususiyatini belgilashda hamda pedagogik faoliyatning mavjud shart-sharoitlari, pedagogning shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari va uning pedagogik tajribasini aks ettirishlari lozim.

I.3-§. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish – pedagogik tizim sifatida

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonning asosiy xususiyatlari – ularning tizimliliigi, yaxlitligi, davriyligi va texnologiyaviyligi. Yaxlitlik deganda, tarbiyalash va o'qitish jarayonlari, shuningdek, shaxsni rivojlantirish

jarayonlari birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasa-da, bir-biriga bog'liq.

Dunyo miqyosida oxirgi 10-15 yilda biz axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib, ishlab chiqarishning turli sohalariga joriy etilishi va bugungi kunda har bir bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyatini axborot texnologiyalarsiz tasavvur qila olmasligi ayon bo'ldi.

Zamonaviy elektron resurslar va o'qish, mustaqil ta'lim olish, olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar bilan birgalikda elektron ta'lim resurslari deb ataladi. Elektron ta'lim resurslarining asosiy turlari quyidagi rasmda ko'rsatilgan (*1.3.1-rasm*).

Axborot tizimi dinamik ko'rinishga ega bo'lib, rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. Axborot tizimining mahsuloti xam axborot hisoblanadi. Axborot tizimini odam-kompyuter tizimi ko'rinishida tasavvur qilish lozim.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishimizdagi samaradorlik va natijaviylik bilan bevosita bog'liq bo'lgan omillarga tayanib, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilariga qo'yiladigan axborot – kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyaviy talablar tarkibi mavjudligini ko'rsatdi.

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining axborot – kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyani quyidagi 4 ta yo'nalishga ajratiladi, ya'ni ular:

1. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari siyosatini tushunishga oid layoqat tarkibi ta'limda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tamoyillarini tavsiflash va tahlil qilishdan iborat bo'ladi [120].



1.3.1-rasm. Elektron axborot ta'lim resurslarining asosiy turlari.

2. Kompyuterda ishlashning tayanch usullarini bilishga oid layoqat tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalgan texnik va dasturiy vositalarini tavsiflash va ko'rsatish (kompyuter va uning qurilmalari, ishga tushirish va ishni yakunlash, operatsion tizimlar, dasturiy ta'minot kabilarga oid);

keng tarqalgan elektron ta'lim resurslarini tavsiflash va ko'rsatish (elektron darsliklar, trenajyorlar, multimedia resurslariga oid);

matn va jadvali, namoyish muharrirlarining imkoniyatlarini tavsiflash va ko'rsatish (matn va jadvali muharrirlari, yaratish, tahrirlash, formatlash, saqlash, chop etish va boshqa tayanch funksiyalariga oid);

Internet va unda ishlashni tavsiflash va ko'rsatish (Internet, brauzer, sahifa, sayt, portal, havola va boshqalarga oid), qidirish tizimlarini tavsiflash va ko'rsatish (qidirish tizimlari, funksiyalari, eng ko'p tarqalgan qidirish tizimlariga oid);

elektron pochta tizimlarini tavsiflash va ko'rsatish (elektron pochta xizmati, elektron pochta ochish, ma'lumot almashish va boshqalarga oid);

turli ma'lumotlar ombori va ularning vazifalarini tavsiflay olish (ma'umotlar ombori, vazifasi, keng tarqalganlariga oid);

tarmoq orqali muloqot vositalarni tavsiflash (keng tarqalgan matn xabar, video konferensiya, ijtimoiy tarmoq, tarmoq muhitlari, ularning afzalliklari va kamchiliklariga oid).


3. Pedagogik faoliyatda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish layoqati: o'z faoliyatiga oid elektron ta'lim resurslari, tayyor dasturiy mahsulotlardan foydalanishning ahamiyatini tavsiflash va ko'rsatish (mazmuni, tizimlashtirish, zarurligini baholash, maqsadli foydalanish, ahamiyati, tajriba, samara, natijalarga oid); qidirish tizimlari, Internet saytlari, elektron pochta, tarmoq ma'lumotlar ombori yordamida hamkorlar va resurslarni izlash, foydalanish; turli elektron o'qitish dasturlari va trenajyorlarning talabalarga bilim berishdagi ahamiyatini tushuntirish.

4. Virtual pedagogik hamkorlik qilish boshqalar bilan pedagogik muammoni yechish va ta'lim maqsadiga erishish bo'yicha virtual hamkorlik qilish (keng tarqalgan matn xabar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlash, maqsadlar, tajriba, samara, natijalarga oid) hamda veb-resurslar, virtual muloqotlardagi axborotlarning ishonchliligi va foydaliligini tavsiflash, ularni ajrata olish (veb-resurslar va veb-muloqotlarning ishonchliligi, ishonchsiz va zararli axborotlarni saralash kabilarga oid) dan iborat.

Aloqa tizimlari va kompyuter texnikasining integratsiyalashuvi axborotlarni izlash, to'plash, saqlash va undan foydalanish usullari va vositalari hisoblangan axborot texnologiyalari imkoniyatlarini yuqori cho'qqiga chiqishiga olib keldi. Ayniqsa, dunyo bo'ylab joylashgan va yagona tarmoqqa birlashtirilgan minglab kompyuter tarmoqlarining majmui hisoblangan Internet tarmog'i, tasviriy va tovushli axborotlarni olis masofalardan qisqa vaqtda uzatish imkonini beruvchi World Wide Web (WWW) bugungi kunda ATning asosiy bo'gini hisoblanadi. Hozirgi global axborotlashtirish, texnologiyalarning uzluksiz rivojlanishi, loyihalashtirishning barcha sohalaridagi avtomatlashtirish jarayoni, ishlab chiqarish va boshqarish malakali kadrlarga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. XXI asr mutaxassislarini tayyorlash texnologiyalarining

rivojlanishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Uning asosida zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash, axborotlashtirish, real hayotdagi bog‘liq holda ta‘lim jarayonini olib borish tashkil qiladi(1.3.2-rasm).

1.3.2-rasm. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini amalda qo‘llash.



Bu masalani yechishning samarali yo‘llaridan biri – bu multimedia texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga mos ravishda qo‘llashdir.

“Multimedia” (multimedia) so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib “ko‘p muhitli” ma‘nosini anglatadi. “Multimedia” tushunchasidan kelib chiqib uni bir necha yo‘nalishlarini belgilash mumkin: har xil turdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash vositalarini qo‘llash, ishlab chiqish tartibini ko‘rsatuvchi texnologiya; har xil turdagi ma‘lumotlarni taqdim qilish va qayta ishlash texnologiyalari asosida yaratilgan axborot resursi; har xil turdagi ma‘lumotlarni taqdim qilish va qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan kompyuter dasturiy ta‘minoti; har xil turdagi ma‘lumotlar bilan ishlashni ta‘minlaydigan kompyuter qurilma ta‘minoti; an‘anaviy statistik vizual va dinamik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi ma‘lumot turi.

Shunday qilib, “multimedia” terminini keng ma‘noda shunday ta‘riflash mumkin, u foydalanuvchiga samarali ta‘sir ko‘rsatish maqsadidagi har xil dasturiy va texnik vositalaridan iborat bo‘lgan axborot texnologiyalarining bir turi bo‘lib, ular quyidagilar: ta‘lim-tarbiyada multimedia texnologiyalarini qo‘llashning asosiy afzalliklari: ma‘lumotlarni aniq va obrazli taqdim qilish; faol dialoglar yordamida

o'qitish jarayonida individuallikni ta'minlash; talabalarning idrok qilish va anglash xususiyatlarini rivojlantirish; jahon axborot muhitida talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash.

Multimediadan foydalanishda talabalar uchun o'quv materiallari bilan o'zlarining individual xususiyatlariga mos ravishda ishlashi mumkin. Masalan, ba'zi talabalar o'quv materiallarini o'qish orqali, ba'zilari tinglash, ba'zilari ko'rish orqali yaxshi qabul qiladi. Talabalar o'zlariga mos ravishda ishlashiga imkon yaratiladi.

Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda fan-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalar va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va Internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Buning uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish zarur.


Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga asoslangan ta'limning yangi modelini joriy etish pedagoglar va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yangi talablar qo'yadi, ular: axborot resurslarini to'plash, qayta ishlash, uzatish, saqlash bo'yicha va axborotli-metodik ta'minot jarayonini avtomatlashtirish maqsadida axborot mahsuli bo'yicha axborotli faoliyatni amalga oshirish; axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositasi bazasida amalga oshiriluvchi o'quv jarayoni ishtirokchisi va interfaol vositalari orasida axborotli o'zaro bog'liqlik tashkillashtirish; talaba bilim darajasini baholash va baholash metodikasini diagnoz qiluvchi, testlovchi psixolog-pedagogik usullarni qo'llash va yaratish; konkret o'quv predmeti muhim jihatlarini ko'rsatuvchi axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llash bilan o'quv faoliyatini amalga oshirish; o'qituvchini o'z pedagogik amaliyotida mustaqil axborot – kommunikatsiya texnologiyalari qo'llay olishga tayyorligi va qobiliyatini aniqlab beruvchi axborot – kommunikatsiya texnologiyalari - kompetensiyasini shakllantirish, bunda o'qituvchilarni axborot – kommunikatsiya texnologiyalari -kompetensiyasi deganda, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va usullarini qo'llash bilan kasbiy muammolarini hal qilish tushuniladi [121].

Ma'lumki, ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta'lim berish va ta'lim oluvchini o'z ortidan ergashtira olish uchun bugungi o'qituvchiga yordam berishi mumkin bo'lgan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar o'qitish jarayonida keng qo'llanilib kelinmoqda. Xususan, o'qitish texnologiyasida

taqdimot metodi talabalarni qiziqтира olishi, ma'lumotlarni yoritib berishda qulayligi bilan alohida ajralib turadi.

Taqdimotlar o'zaro ijtimoiy va biznes aloqalarning eng muhim quroliga aylandi - deb ta'kidlanadi, Nensi Duartening - Slide:ology nomli kitobida. Dunyoning mashhur insonlaridan biri S. Jobs – Agar siz uni tayyorlashning eng oddiy usullarini o'zlashtira olsangiz ham shubhasiz auditoriyada siz etakchi bo'la olasiz - deb ta'kidlaydi. Taqdimot metodi o'z ichiga turli grafik dasturlar yordamida slaydli taqdimot tayyorlash hamda uni talabalarga sifatli etkazib berishni qamrab oladi. Taqdimotlar, asosan, iSpring, Power Point, Micromedia Flash va shu kabi boshqa dasturlarda tayyorlanadi. Ammo shuni e'tiborga olish muhimki, taqdimot slaydlarining sifatli va yuqori saviyada tayyorlanishi talabalarning o'zlashtiradigan bilimlar foizini yuqori bo'lishini ta'minlaydi, aksincha bo'lsa, talabada fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqishni yo'qolishiga ham olib kelishi mumkin.

Pedagogik dasturiy vositalar – materialni takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi; o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularga qo'yiladigan talablar mavjudligi quyidagi 1.3.3-rasmda keltirilgan.



1.3.3-rasm. O'qitish – tarbiyalash samaradorligini oshirishda pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablar.

Pedagogik dasturiy vositalar an'anaviy o'quv nashrlariga qo'yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak.

1. O'quv materiallarini pedagogik dasturiy vositalar yordamida o'zlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari asosida amalga oshiriladi. Masalan, tajriba, taqqoslash, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, o'xshashlik, tahlil va sintez, modellashtirish metodi, shu bilan birga matematik modellashtirish va tizimli ta'lim metodlari.

2. O'qitishning erishuvchanlik talablari pedagogik dasturiy vositalar orqali amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning yoshi hamda individual darajasini aniqlash zaruratini bildiradi. O'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, aks holda ta'lim oluvchi bu materialni egallashga ojizlik qiladi.

3. O'qitishning muammoliligi ta'minlanadi. Agar ta'lim oluvchi muammoli topshiriqlar va mashqlarni bajarishga xarakat qilsa, uning fikrlash faolligi ortadi. Ushbu didaktik talabning pedagogik dasturiy vositalar yordamida bajarilish darajasi, an'anaviy darsliklar va qo'llanmalardan ko'ra, sezilarli ravishda yuqori bo'ladi.

4. Pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlash – ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilish va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruratini bildiradi.

5. O'qitish – tarbiyalashning ongliligi, ta'lim oluvchining mustaqilligi va faolligini ta'minlash talablari – o'quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o'quv axborotini jalb qilish bo'yicha ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashlari uchun pedagogik dasturiy vositalar bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunda ta'lim oluvchi uchun o'quv faoliyati yo'naltirilgan maqsad va mazmuni anglatadi. Fanlar bo'yicha pedagogik dasturiy vositalar tizimli faoliyatli yondashuv asosida ishlab chiqilishi kerak.

6. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishda o'qitishning tizimlilik va ketma-ketligi – o'rganiladigan fan sohasidan bilim va ko'nikmalarning ta'lim oluvchilar tomonidan tizimli o'zlashtirilishini anglatadi. Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar – ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va amalda qo'llanilishi zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarurligi aniqlandi:

– o'quv materialini tizimlashtirilgan tartibda tavsiya qilish;

– o‘quv materiallari yuzasidan shakllanadigan bilim va ko‘nikmalarning rivojlanib borishiga erishish;

– o‘rganilayotgan o‘quv materialining fanlararo bog‘liqligini ta‘minlash;

– o‘quv materiali va ta‘lim beruvchi ta‘sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o‘ylab ko‘rish;

– bilim berish jarayonini mantiqiy ketma-ketlik asosida qurish;

– mazmunli o‘yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va tajriba-sinovlarni, haqiqiy jarayonlar va ob‘ektlar modellarini tavsiya qilish yo‘li bilan amaliy faoliyatga bog‘lashni ta‘minlash.

7. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishda bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish – talabalarning o‘quv materialini mustahkam o‘zlashtirishlari uchun, ularning chuqur fikrlash, xotirada saqlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Ta‘lim – tarbiyaviy jarayonni kompyuterlashtirish ikki yo‘nalishda davom etmoqda: kompyuter savodxonligini ta‘minlash va kompyuterdan o‘quv fanlarini o‘qitishda foydalanish. Birinchi yo‘nalish bo‘yicha ma‘lum natijalarga erishilganligini qayd etgan holda, ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning qoniqarsiz ekanligini aytib o‘tish joiz: amaliyotda o‘rgatuvchi dasturlar deyarli yo‘q; pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga mutaxassis olimlar keng jalb qilinmagan; dasturiy vositalar va ulardan foydalanish usullarini pedagoglar to‘liq o‘zlashtirishmagan o‘qituvchilar deyarli xabardor emas; pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasining o‘zi haligacha psixologik, pedagogik, didaktik, metodik jihatdan mukammal tadqiq qilinmagan, talabalarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirilmagan.

Jamiyatning madaniy, ma‘naviy, ma‘rifiy, mafkuraviy qiyofasini belgilashda jamiyat a‘zolarining savodxonlik darajasi muhim omil hisoblanadi. Ko‘pchilikni savodli qilish uchun o‘qish va o‘qitishni, ilm-fanni, izlanish va o‘rganishni, xullas, ta‘lim-tarbiyaviy jarayonlarni texnologiyalashtirish, o‘qitish-tarbiyalashning zamonaviy metodlarini keng ko‘lamda qo‘llash orqali ma‘rifiy ziyo oluvchilarga sifatli va samarador bilimlar berish lozim bo‘ladi.

Ta‘lim-tarbiyaviy jarayonlarga tegishli texnologiyalardan o‘rinli va unumli foydalanish, ularning tarkibiy komponentlari orasidagi uzluksizlik va uzviylikni ta‘minlash - davr talabi.

Ayni davrda zamonaviy ta‘lim texnologiyalar – tizimli yondashuvlar asosida o‘qitish-tarbiyalash shakllarini qulaylashtirish, ularning natijalarini

kafolatlash va xolisona baholash metod va vositalarini xilma-xillash, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar sifati va samaradorligini oshirish bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalash faoliyatini rivojlantirish demak [123].

I bob bo'yicha xulosalar

1. Axborot texnologiyalarining umumiy tavsifi va tarkibiy qismlari mazmuni uning ijtimoiy hodisa ekanligida namoyon bo'ldi, ta'lim-tarbiyaga oid masalalar bilan bog'liq maqsad va vazifalar, motiv va ehtiyojlar, talab va manfaatlar, qiziqish va xohishlar amalga oshirildi.

2. Asosiy tamoyil – axborot texnologiyalarining mamlakatimizda pedagogikaning asosiy “oltin” qoidasini, ya'ni ta'lim-tarbiya mushtarakligini bajarishga, ya'ni ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash.

3. Ketma-ketlik, izchillik, maqsadlilik, umumiylik kabi tamoyillar bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarning metodologik, ijtimoiy, falsafiy, didaktik, psixologik, pedagogik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy va amaliy asoslari barobarida qatnashish.

4. O'qituvchi va bo'lajak o'qituvchi munosabatiga daxldor tamoyillarning amal qilishi o'quv jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim omili. Axborot texnologiyalarining barcha tamoyillari o'zaro aloqadorlikda va bir-birini taqozo etgan holda amal qilish.

5. Axborot texnologiyalarining o'qituvchi tomonidan o'qitish – tarbiya vositalari yordamida talabalarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish.

6. Axborot texnologiyalarini amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi bo'lib hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va o'qitish texnologiyasi o'zaro bog'liq bo'lishi bilan birga farq qiluvchi tomonlari ham mavjud. Axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiyaviy jarayonning hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa, o'qitish texnologiyasi ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qilish.

II BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SOG‘LOM MA‘NAVYIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH SHAKL VA METODLARI

II.1-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati

Ta‘lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot kommunikativ kompetentligini talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot kommunikativ kompetentligi – bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish ko‘nikma, malaka, tajribalarini o‘zlashtirishi (motivatsion daraja), axborot-kommunikatsiya texnologiyaning funksional imkoniyatlaridan to‘laqonli xabardorligi (kognitiv daraja), ulardan kasbiy maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida samarali foydalana olish, ijod maxsulini yaratish (faoliyatli-refleksiv daraja) qobiliyati [114, 22b].

Aksariyat mutaxassislarning ta‘kidlashicha, insoniyat hozirda rivojlanishning yangi bosqichi, biomadaniyat bosqichi bo‘lag‘asida turibdi. Buning ma‘nosi shuki, hozirda insoniyat muhitga bo‘lgan munosabatini boshqacha usullar va ko‘rinishlarda amalga oshirmog‘i kerak. Shunday qilib, axborot tashkilotlarining hozirgi asosiy masalasi shundan iboratki, ular o‘z faoliyatlarini tartiblashtirib, uni rivojlantirishni shunday bosqichga ko‘tarishlari kerakki, u har qanday radikal o‘zgarishlar sharoitida faoliyat ko‘rsata olsin.

Ta‘limda texnologik yondashuv mohiyatini tushunish uchun, eng avvalo, “texnologiya” so‘zi va tushunchasi mazmunini aniqlash zarur. Texnologiya yunoncha so‘z bo‘lib, texne – mahorat, san‘at, logos – tushuncha, fan, ta‘limot ma‘nolarini anglatadi.

O‘quv materialini diagnostik ifodalangan o‘quv maqsadlariga mos qayta tuzilib, ishlab chiqiladi, ayrim bo‘laklarga ajratiladi. O‘quv materialini talabalarga etkazib berishning muqobil yo‘llari nazarda tutiladi. Har bir bo‘lakni, bo‘limni o‘rganish test yordamida nazorat etilib, hatto kamchiliklar shu paytning o‘zida tuzatilib, to‘g‘irlanib boriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy-refleksiv darajasi bu ta‘lim-tarbiya jarayoni davomida insonning aqliy yuksalishining yuqori ko‘rsatgichi sifatida namoyan bo‘lib, o‘z xatti-xarakterlarini (nutqi, sezishi) anglab to‘g‘ri bajara olishi bilan belgilanadi.

Pedagogikada qayta takrorlanadigan ta'lim-tarbiyaviy jarayonni yaratish oson ish emas. Bunga o'quv-tarbiya vazifalarining turli – tumanligi, ta'lim-tarbiya mazmuni va o'quv materiallarining har xilligi, talabalarning o'zlashtirish qobiliyatlari, xotira xususiyatlari bir emasligi kabi qator omillar sabab bo'ladi. Shunga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiya usuli qayta takrorlanadigan pedagogik turkum sifatida ta'lim-tarbiya olishda rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi ta'kidlanmoqda.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiyada qo'llashda o'qitishning boshqa usullaridan farqini ko'z oldiga keltirish uchun, uning muhim belgilarini aniq ko'rsatish talab etiladi. Mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda chop etilgan pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiya usulining muhim xususiyatlari, belgilari qatorida umumlashtirilgan holda, quyidagilarni ko'rsatish lozim:

- ta'lim-tarbiyaviy jarayonni oldindan reja asosida loyihalash va auditoriyada talabalar bilan mazkur loyihalarni qayta ishlab chiqish, tizimi, texnologik yondashuvlar asosida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini o'stiradigan ta'lim-tarbiyaviy jarayon loyahasini tuzish;

- ta'limning maqsadi to'liq va aniq, diagnostik bo'lishi, talabalar bilimlarining o'quv reja bo'yicha ob'ektiv baholanishi, ta'lim maqsadlarini ko'zlagan andoza asosida talabaning kuzatishlari, o'lchashlari, harakatlari shaklida oydinlashtirilishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning talaba faolligiga tayanib tashkil etilishi;

- ta'lim-tarbiyaviy jarayonda texnika vositalari va inson salohiyati o'zaro ta'sirining hisobga olinishi;

- ta'lim-tarbiyaning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlanganligi;

- motivatsion qadriyali (ahamiyatga molik) bilishga bo'lgan qiziqish, anglash faolligi, o'rganish jarayonida mustaqil qaror chiqarish kabi xislatlar.

Qayd etilgan bandlarning har biri ta'lim tizimida o'z o'rnini bor va bu masalalarni yechish falsafa, sotsiologiya, fiziologiya, matematika, axborot, pedagogika va kompyuter texnologiyalari hamda boshqa fanlarning qonuniyatlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Zamonaviy texnikaning imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim-tarbiya tizimida yuqori ko'rsatkichlarga, qolaversa, ijtimoiy va iqtisodiy samaralarga erishishga imkon beradi [123]. Bu esa ta'lim muassasasining keyingi rivoji uchun muhim. Shunday qilib, ta'lim muassasalari xizmatida

texnikaviy qayta qurollanishning zaruriyligi va dolzarbligi zamonaviy fan-texnika inqilobi, fan-texnikada erishilgan yutuqlar, ta'lim-tarbiyaviy jarayon amaliyotidagi ichki talablar va ularga avtomatlashtirishni tatbiq qilish uchun nazariy bazaning shakllanishi kabi shartlar bilan aniqlanadi.

Ma'lumki, axborot qidiruvini formallashtirish ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-ma'naviy omillar ta'siri ostida kechadi. Insoniyat jamiyat va tabiatni o'zgartira borib, rivojlanishning yuqori cho'qqisiga ko'tarilib, ancha global muammolarni yechishga to'g'ri kelmoqda. Bu esa ancha etuk va chuqur bilimli mutaxassislarni talab etadi. Ekologik inqiroz, oziq-ovqat muammosi, kosmosni tadqiq qilish, agrotexnika, atom energiyasidan foydalanish texnologiyasi, xujayralar (gen) muhandisligi va hokazo muammolar insoniyat oldida turgan zamonaviy va dolzarb muammolardan. Axborot qidiruviga bo'lgan ehtiyojning bu kabi tez o'sishi va murakkablashuvi mustaqil mamlakatimizdagi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar bilan ham bog'liq.

Rivojlangan jamiyatda axborot fan, texnika, iqtisodiyot, madaniyat va hokazolar rivojlanishining asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Bu jarayonning aniq ko'rinishi jamiyatning informatsiyalashuvi. Olimlar hozirgi rivojlangan tarixiy jarayonda qaysi ijtimoiy-iqtisodiy tizim axborotlarni yuqori sifatli, tez ishlab chiqsa va yangilay olsa, ulardan o'z maqsadlariga erishish uchun samarali foydalana olsa, shu tizim rivojlanishida olg'a yuradi va g'olib chiqadi deb hisoblaydilar.

"Axborotlashtirish" tushunchasi hozirgi adabiyotlarda "elektrlashtirish", "kompyuterlashtirish", "avtomatlashtirish" atamalarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Ammo bu tushunchalar falsafiy maqomiga ko'ra xilma-xil. Shuning uchun ham bu jarayonlar xilma-xilligini tushunmagan ba'zi tadqiqotchilar axborotlashtirishni kompyuterlashtirish bilan bir narsa deb talqin etadi.

"Axborot oqimi" tushunchasini ilmiy jihatdan o'rganish masalasi keyinchalik falsafiy bilish sohasining tarkibiy qismi va manbaiga aylandi. Lekin bu tushunchani ta'riflash va tasniflashda bir tomonlama noilmiy yondashuvlar ham yo'q emas. Shu bois axborot oqimining kelib chiqish va rivojlanish muammolari doirasi va qonuniyatlarini to'g'ri tushunish asosida munosabatda bo'lish uning keyingi rivojida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

"Axborot madaniyati" esa xabarlarini saqlash, ularning ahamiyatli jihatlarni belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e'tibor qaratib munosabat bildirish, g'oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, axborot madaniyati - texnik-texnologik va

ijtimoiy-madaniy jihatlariga ega. Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash va etkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari haqidagi bilimlar tizimini anglatadi.

Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda-ki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Axborot iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining tavsifli xususiyatlaridan biri bo'lgan, Internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, hozirgi zamon kishisida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqoriki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda o'z qimmatini yo'qotishi ma'lum. Shu nuqtai nazaridan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Axborot iste'mol madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulyativ (tartibga solish) axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidan. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Internet orqali ko'plab ijobiy ma'lumotlar bilan birga, sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Hamma gap mazkur resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishida.

Talaba - yoshlarning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy dunyoqarashini buzg'unchi ta'sirlardan asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonda didaktikaning tamoyillariga asoslanish kerak, degan masala faylasuf, psixolog, pedagog, didakt olimlarning diqqat markazida turibdi. Fikrimizcha, talaba-yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish, ular ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Har narsaning yaxshi va yomon tomoni bo'lgani kabi, so'nggi yillarda Internetning jiddiy xatarli jihatlari oshkor bo'lmoqda. Eng achinarli tomoni shundaki, buzg'unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar. Bu esa talaba-yoshlarni o'z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayolik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ'ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg'on ma'lumotlar berilayotgani

afsuslanarli holat ekanligi hech kimga sir emas.

Dunyo mamlakatlarida qadriyatlar almashishi, integratsiyalashuv, globallashuv, agar ta'bir joiz bo'lsa, madaniyatlar aralashuvi, sintezlashuvi jarayoni kechayotgan hozirgi paytda o'zga urf-odatlariga, ma'naviy tamoyillarga moyil bo'lishi tabiiy hol. Bugungi globallashuv davrida axborot tarqatish nihoyatda ayanchli qiyofaga kirdi. Internet tarmog'ining tezkorlik bilan rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Odamlar ish kunini Internetdan boshlab, u bilan tugatadigan bo'lib qoldilar.

Bugungi kunda virtual tahdid nihoyatda ommalashib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqot ishlari natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi o'quvchilar Internetdan tobora erta foydalanishga kirishmoqdalar. Lekin mutaxassislarning fikricha, o'n yoshga etmagan bola, odatda, mustaqil holda Internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, "filtrlay" olish qobiliyatiga ega emas.

Mamlakatimizda salbiy omillarning oldini olish choralari ko'rilmogda. "ZiyoNET" tarmog'iga tegishli axborot zaxiralarini tasniflash Milliy reyting tizimi dasturiy ta'minoti orqali monitoring o'tkazilishi jarayonida milliy an'ana va qadriyatlarimizga xilof bo'lgan, talaba-yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi behayo hamda pornografik, shu bilan bir qatorda, inson organizmining jismoniy yoki ruhiy buzilishi holatini keltirib chiqarishi ehtimoli bo'lgan materiallar tarqatuvchi veb-saytlaridan foydalanish, izlash holatlari aniqlandi va dastur yordamida ushbu veb-zaxiralarga kirish chegaralab qo'yildi.

Aloqa vositalaridan foydalanishda Internet va mobil aloqa tizimlari - multimedia va axborot tarqatuvchi vositalardan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish bilan birga uning salbiy oqibatlarini tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning salbiy jihatlarini ikki turga ajratish mumkin:

Birinchi, sihat-salomatlikka ta'sir etsa; ikkinchi, yoshlar ma'naviy ongiga ta'sir qilishi mumkin.

Jamiyatning quyidagi bo'g'inlarida axborot-kommunikatsiya texnologiya-larining salbiy holatlarining oldini olish bo'yicha tushunchalar berish lozim: yoshlar ongiga salbiy ta'sirni kamaytirish choralari: oilada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tartib-qoidalarini tushuntirish va nazorat ishlarini tashkil etish; mahallada - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soxasi bo'yicha ota-onalar bilan

uchrashuvlar tashkil etish, mavjud kompyuter xizmatlarini (Internet kafe va boshqa) nazorat qilish; ta'lim muassasalarida tushintirish ishlarini olib borish; foydalanilayotgan uyali aloqa vositalarida saqlanayotgan ma'lumotlarni tekshiruvdan o'tkazib turish.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish: uyali telefonlardan foydalanish tartib qoidalarini keng targ'ib qilish; uyali telefonlar imkoniyatlaridan to'g'ri maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarini targ'ib etish; internet resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanishni tashkil etish.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonini tashkil qilish metodikasi an'anaviy o'qitish metodidan tubdan farqlanib, u o'qituvchi va talabalar uchun:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilish;
- ta'lim-tarbiyaviy jarayonni baholash, teskari aloqa bog'lash;
- o'z-o'zini nazorat qilish va tuzatib borish;
- o'rganilayotgan mavzularni namoyish etish va ularning dinamik jarayonini ko'rsatish;
- fan mavzularida animatsiya, grafik, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- talabalarda fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilish;
- talabalarning mustaqil ishlari uchun shart-sharoit yaratish;
- masofadan o'qitish tizimini o'quv-metodik adabiyotlari sifatida qo'llash;
- ta'lim tizimida tashabbuskorlik, tadbirkor va tejamkorlikka erishish kabi imkoniyatlarni yaratadi [119].

Zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yutuqlaridan biri multimedia komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning amaliy mashg'ulotlarini tashkil qilishda bu dasturiy vositalarning o'rni salmoqli. Multimedia vositalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llash yangi shakl va metodlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Fan o'qituvchilari kompyuter sohasidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda mavzuga oid amaliy mashg'ulotlarning kompyuter yordamida imitatsion modelini yaratmoqdalar. Bunday ko'rinishdagi amaliy ishlar virtual stendlar deb yuritiladi.

Virtual stend – bu ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha kompyuter texnologiyalari asosida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan o‘quv ishlari.

Virtual stendlar yaratishdan maqsad amaliy ishlarni bajarish uchun kompyuter texnologiyalaridan keng ma’noda foydalanishni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Shuning bilan bir qatorda, virtual stendlarning yaratilishi ta’lim-tarbiyaviy zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida amaliy ishlar bajarilishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, virtual stendlarning yaratilishi natijasida mumkin bo‘lmagan ishlarni bajarib ko‘rsatish va ular asosida o‘tkazilayotgan ishlarni ekologik sof muhitda bajarish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Virtual stendlardan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish ta’lim-tarbiyaviy jarayon samaradorligiga erishishni ta’minlaydi. Kompyuterda yaratilgan amaliy ishlarning virtual stendlarini talabalar o‘zlari uchun qulay va zarur vaqtlarda ko‘rish, ishlarni takror bajarish, muhokama qilish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning o‘zlashtirish ko‘rsatgichlarini oshirishga olib keladi. Yana muhim tomonlaridan biri – bu virtual stendlardan foydalanilganda o‘quv materiallari sarf qilinishining tejalishi. Chunki kompyuterda virtual stend bilan shug‘ullangan talabalar materiallarni isrof qilmasdan, kerakli me’yorda ishlatishga tayyor holda kelishadi.

Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda talabalarining mustaqil ishlashga bo‘lgan nazariy, amaliy va psixologik tayyorgarliklari muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, ta’lim muassasalarining ish rejasida talabalarning mustaqil ishlari uchun ma’ruza mashg‘ulotlaridan kam bo‘lmagan miqdorda vaqt (soat) ajratiladi. Ushbu mustaqil ishlash uchun ajratilgan soatlardan qanday unumli foydalanish va ularni qaysi shakl va metodlar bilan tashkil qilish lozim? – degan o‘rinli savollar tug‘iladi. Bu savolga javob topish uchun ta’lim-tarbiyaviy jarayonni doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Talabalarning mustaqil ishlash soatlarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda, tashkil etish katta samara beradi. Bu masalaning yechimini topishda, yuqorida ta’kidlanganidek, o‘quv materiallarini elektron nusxada chop etish juda qo‘l keladi. Auditoriyalarda ularga kerakli fanlarga doir mavzularni kompyuterdan olib o‘qishi va shug‘ullanishi uchun shart-sharoit bo‘lishi lozim.

Mustaqil ishlash uchun ajratilgan soatlarda kompyuter xonalarida talabalar uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida shug‘ullanish imkoniyatini yaratish va bu ishda mustaqil soatlarning

tashkil qilinishi talabalarning o'zlariga qulay vaqtda kerakli fanlar bo'yicha shug'ullanish imkoniyatini beradi. Buning zaruriy shartlaridan biri – bu o'quv materiallarining elektron nusxada chop etilishi. Agar o'quv materiallari multimedia vositalari asosida tashkil etilgan bo'lsa, bunda talabalarning mustaqil ishlari jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi yanada yuqori bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonida elektron nusxada berilgan o'quv materiallarida talabalarga beriladigan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab borish, bunda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarni shakllantiradi, o'tilgan mavzu mohiyatini anglab yetishlariga yordam beradi. Ushbu muammoli o'qitish va talabalarning mustaqil ishlashini tashkil qilish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan multimediali elektron darsliklarning yaratilishi ayni muddao.

Shu o'rinda axborot texnologiyalarining multimediali vositalaridan foydalanib o'qitishning an'anaviy metodda o'qitilishiga qaraganda farqini tahlil qilganda quyidagi asosiy afzallik tomonlarini ko'ramiz:

- mashg'ulotni o'tishda ma'ruzachining o'quv materiallarini tushuntirish jarayonining yengillashishi;

- o'quv jarayonida original o'rnida kompyuter tomonidan modellashtirilgan ob'ektning imitatsiya qilinishi va bu jarayonni ichkaridan kuzatish mumkinligi;

- o'quv jarayonida berilayotgan materiallarni takroriy holda berish imkoniyatining mavjudligi, axborot texnologiyalari asosida o'tkaziladigan mashg'ulotni o'zlashtirish darajasining yuqoriligiga erishish;

- multimediali vositalar bazasida virtual stendlar tashkil qilish imkoniyatining yaratilishi;

- virtual stendlar asosida amaliy ishlarni bajarishga zamin yaratilishi;

- virtual stendlarning maxsus jihozlangan xonalar talab qilmasligi;

- o'quv jarayonining video va audio animatsiyalar bilan boyitilib borilishi hamda talabalarning mashg'ulot jarayoniga bo'lgan qiziqishlarining kuchayishi;

- ommaviy tarzda foydalanish, ya'ni bitta ma'lumotlar bazasidan bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

- ma'lumotlar bazasini tezkor ravishda o'zgartirib, zamon talabiga moslashtirib borilishi;

– masofadan o‘qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish mumkinligi;

– o‘quv jarayonida talabalarning yakka tartibda bilimni nazorat qilish mumkinligi.

Ta’kidlash joizki, o‘quv jarayonini axborot texnologiyalari asosida tashkil qilishdan asosiy maqsad o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘qituvchi – talabalarning kundalik ish quroliga aylantirishga erishish [119].

Ta’lim-tarbiyaviy jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini rivojlantiradi, ta’lim-tarbiyaviy jarayon sifati va samaradorligi yuqori darajada bo‘lishiga imkon yaratadi.

II.2-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanish shakllari

Hozirgi zamonda axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining turli sohalariga jadal kirib bormoqda va ularni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalarning ta’siri odamlarning turmush tarzi, ta’limi va ishida o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish, uni iqtisodiyot va hayotning barcha sohalariga yalpi joriy etishda foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiyalar, fuqarolarning axborotga nisbatan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini iloji boricha to‘liq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga qo‘shilish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda dunyo axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hozirgi jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan. Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informatsion-innovatsion davrda kechmoqda. Bu jarayonni xarakatlantiruvchi kuchi - bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o‘zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o‘zgarishlar. Natijada, iqtisodiy faoliyat subyektlari o‘rtasida innovatsiyalarni ayirboshlash va amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kun talabalarini sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yetakchi o‘rinni egallaydi. Tadqiqot ishimizda taklif etmoqchi bo‘lgan modelimiz uch bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga doir bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi hamda bo‘lajak


o'qituvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish imkoniyatlarini o'rganish. Ikkinchi bosqichda bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda ularning bilim, ko'nikma, malakala va kompetensiyalari ijodiy tavsifdagi o'quv va test topshiriqlar orqali o'zlashtirish darajasini aniqlash. Uchinchi bosqichda bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuzilmasini tashkil etuvchi va o'zaro bog'liqlik darajasini belgilovchi kasbiy pedagogik refleksiya ko'rsatkichlari (motivatsiyali, qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) komponentlar asosida orttirishdan iborat. Modelning umumiy ko'rinishi 2.2.4-rasmda o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot ishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish modeli asosida tadqiqotning maqsadi, tashkiliy vazifalari, ta'lim metodlari, shakllari, tamoyillari, komponentlari, axborot texnologiyalaridan auditoriyada foydalanish shakllari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarining o'rni, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan salbiy jihatlari va bu salbiy ta'sirlardan himoyalash tizimi va natijalari keltirildi.

Tadqiqot doirasida innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modelining kognitiv, texnologik, kreativ, konstruktiv tuzilishi hamda konseptual, texnologik, operatsion, amaliy bosqichlari tayanch, texnologik hamda amaliy malaka darajasini baholash mezonlari improvizatsiya va refleksivlik prinsiplariga ustivorlik berish asosida ishlab chiqildi.

Jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuzilmasini tashkil etuvchi va o'zaro bog'liqlik darajasini belgilovchi kasbiy pedagogik refleksiya ko'rsatkichlari (motivatsiyali, qadriyatli, kognitiv – faoliyatli, shaxsiy – refleksiv) ni aniqlash tadqiqot ishimizda dolzarb ahamiyatga ega sanaladi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning komponentlariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ushbu tadqiqotlar tahlilidan tadqiqot ishimizda bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qaratilgan mazmunli-strukturaviy



2.2.4-rasm. Axborot texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish modeli.

komponentlar va shaxs sifatlarini quyidagicha aniqlashtirib oldik (2.2.1-jadval)

2.2.1-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning strukturaviy-mazmunli xususiyatlari va shaxs sifatlarining aloqadorligi

Komponentlar	Shaxs sifatleri
Motivatsiyali komponent	o'ziga yo'nalganlik; muloqotga yo'nalganlik; faoliyatga yo'nalganlik.
Qadriyatli komponent	hayotiy qadriyatlar; shaxs xususiyatlari bilan bog'liq qadriyatlar.
Shaxsiy – reflektiv komponent	muloqotda o'z-o'zini nazorat qilish; faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish.
Kognitiv – faoliyatli	o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini-o'zi takomilashtirishga intilish; javobgarligini o'z zimmasiga olish; mas'uliyatini atrofdagilar bilan teng taqsimlash.

Axborot texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish muammosini tahlil qilish jarayonida to'rt tarkibiy qismni o'zida aks ettiradigan bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning strukturaviy-mazmunli xususiyatlari va shaxs sifatlarining aloqadorligining umumiy tarkibiy-mazmunli komponentlari aniqlandi: motivatsiyali, qadriyatli, kognitiv – faoliyatli, shaxsiy – reflektiv komponent. Shuningdek, ushbu komponentlar bilan bog'liq shaxsning kasbiy pedagogik refleksiya ko'rsatkichlarining aloqadorligi tahlil etildi.

Axborot texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda **motivatsion komponent** avvalo, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyati uchun barqaror motivatsiyani tashkil etuvchi ijobiy munosabat, ehtiyojlar, qiziqishlarni rivojlantirishni anglatib, o'zida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xosligi, muloqotga yo'nalganligi, faoliyatga yo'nalganligi kabi shaxs sifatlarini ifodalaydi. Ushbu komponent quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: o'qituvchining kasbiy burchi muammosiga, kasbiy va pedagogik etikaga qiziqish, axloqiy me'yorlar va qoidalar asosida pedagogik faoliyatning turli subyektlari bilan munosabatlarni o'rnatish zaruratini aks ettiradi. Shuningdek, ushbu tarkibiy qism axborot texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy

tarbiyalashda xorijiy tillarni o'rganish sohasida kasbiy faoliyatga muvofiq axloqiy me'yor va qoidalar, pedagogik etika to'g'risidagi bilim, ko'nikmalar ma'naviy-axloqiy motiv hamda ehtiyojlarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Qadriyatli komponent (aksiologik), rivojlanish ko'rsatkichi bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid pedagogik faoliyatdagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning rolini bilishga e'tibor qaratib, uning aksiologik asoslari, o'qituvchining kasbiy maqomidagi o'rni va ahamiyatiga doir qadriyatlarni tushunish, hayotiy qadriyatlarni anglash, shaxs xususiyatlari bilan bog'liq qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Shaxsiy-refleksiv komponent - o'zida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muloqotda va faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish, refleksivlik kabi shaxs sifatlarini aks ettirib, ushbu jihat subyektning axborot texnologiyalarni o'zlashtirish malakasi, o'z faoliyati va xatti-harakatlarini aks ettirish darajasini ob'ektiv baholash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda refleksiya (lotincha "reflexio" – ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, faxmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishga doir alohida faoliyati, shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash kabi ma'nolarni anglatadi[116].

Kognitiv – faoliyatli komponent - bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini-o'zi takomilashtirishga intilish, javobgarlikni o'z zimmasiga olish, mas'uliyatni atrofdagilar bilan teng taqsimlash kabi shaxs sifatlarini ham o'zida ifodalaydi. Ushbu sifatlar bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda kasbiy etiket bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallagan bo'lishlarini, kasbiy burch, axloqiy tamoyillar va me'yorlar haqidagi bilimlar tizimining mavjudligini talab etadi.

Dars mashg'ulotlaridan tashqarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (seminar-trening, ekskursiya, konferensiya, dekada, QVZ, bahs-munozara kechalari, savol-javob soatlari) ni pedagogik talablarga tayangan holda, ta'lim texnologiyalari, ya'ni, ta'lim shakllari, vositalari va metodlari bilan birgalikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Biz tajriba-sinov jarayonida bu kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni kichik guruxlarda va jamoaviy guruxlarda tashkil etdik. Mazkur xolat 2.2.2-jadvalda ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijasiga ko'ra o'tkazilgan seminar-trening mavzulari asosida talabalarda sog'lom axloqiy-ma'naviyatli sifatlarini hamda inson

ma'naviy-axloqiy olamiga atrofdagi insonlarning ta'siri, buyuk shaxslarning hayot tarzi ulardagi komil inson shaxsining shakllanishiga va o'z-o'zini baholashi, tahlil qilish ko'nikma, malaka va kompetensiyalari shakllantirildi.

2.2.2-jadval

Talabalarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni targ'ib etuvchi tadbirlar rejasi

№	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarilish muddati	Kutilayotgan natija
1.	“Kiberterrorizm: milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid” mavzusida seminar-trening.	Sentyabr	Talabalarni mafkuraviy immuniteti mustahkamlanadi
2.	Ma'naviy tarbiya – yoshlar nazdida” mavzusida seminar-trening.	Oktyabr	Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi yuksaltirishga yordam beradi.
3.	“Bag'rikenglik-tinchlik va barqarorlik omili” ma'naviy-ma'rifiy tadbir.	Noyabr	Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi ishtirokini oshirish
4.	“Yoshlar va media” mavzusida seminar-trening.	Dekabr	Talabalarda vatanparvarlik ruhi yuksaladi.
5.	“Oila – ma'naviyat va tarbiya maskani” mavzusida seminar-trening.	yanvar	Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi yuksaltirishga yordam beradi.
6.	“Ma'naviy xavfsizlik muammolari” mavzusida seminar-trening.	Fevral	Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi ishtirokini oshirish

Reja asosida o'tkazilgan “Kiberterrorizm: milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid” mavzusidagi seminar-trening natijasida talabalar hozirgi davr yoshlarining axborot ta'sirchanligiga berilishi oson ekanligi

hamda kiberhujumlar keltirib chiqaradigan tahdidlar haqida to‘liq xulosaga ega bo‘lishdi. Ushbu seminar-trening mashg‘uloti talabalarga ma’lumotni himoya qilish muhimligini tushunish imkonini berish bilan birga kiberterror guruhlari faoliyatiga aralashmaslik haqidagi sog‘lom g‘oyalarni tarbiyalaydi. Mazkur jarayonning texnologik modeli 2.2.3-jadvalda aks ettirilgan.

2.2.3-jadval.

Talabalarni sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga oid seminar-trening texnologik modeli	
Mavzu:	Kiberterrorizm: milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid.
Seminar-trening	O‘qituvchi va talabalarning dasturiy material ustida dastlabki ishlashi natijasida, ularning bevosita faol muloqoti muhitida, talabalarning mavzu bo‘yicha nutq so‘zlashi, muhokama qilish jarayonida o‘quv mashg‘ulotining shaklidir. Ular o‘rtasida yuzaga keladigan o‘qituvchining umumlashtirishlari, kognitiv, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy xarakterdagi vazifalar, uslubiy va amaliy ko‘nikmalar talabalarga singdiriladi.
Seminar-trening rejasi:	I. Kirish nutqi. II. Mashg‘ulotning tuzilishi va mazmunini seminar yordamida ishlab chiqish. III. Seminar-trening mavzusi yuzasidan topshiriqlarni aniqlashtirish va kichik guruhlarda ishlash. IV. Taqdimotlar o‘tkazish. V. Yakuniy nutq (xulosa).
Maqsad.	Kiberterrorizm tahdidlarini o‘rganish, "Kiberterrorizm uchun asos nima?" ekanligini aniqlash, kiberterrorizmdan kelib chiqadigan tahdidlar va kiberterrorchilik hujumlarining oqibatlarini tushunish hamda kiberterrorchilar foydalanadigan vositalarni ko‘rib chiqish.
Maqsad va mavzuga muvofiq quyidagi	Ushbu mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlang. <ul style="list-style-type: none"> • “Kiberterrorizm” tushunchasini ochish; • Kiberterrorizm etkazishi mumkin bo‘lgan zararni ko‘rib chiqish;

vazifalar belgilandi:	<ul style="list-style-type: none"> • Kiberterrorizmning sabablarini ko‘rib chiqish; • “Kiberterrorizm: milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid” mavzusidagi mashg‘ulotning tuzilishi va mazmunini seminar yordamida ishlab chiqish.
Ob’ekt	Amaliy matematika va informatika yo‘nalishi 3-4-kurs talabalari.
Shakl	Kichik guruhlarda ishlash, bir-birini tinglash, o‘zini va boshqa ishtirokchilarni baholash qobiliyatini mustahkamlash; seminar-treningni amalga oshirish jarayonida bajarilgan ishlar natijalarini taqdimot shaklida taqdim etish.
Kichik guruhlarda ishlash uchun mavzular:	<p>1-guruh: “Kiberterrorizmning zamonaviy tahdidlari”.</p> <p>2-guruh: “Ijtimoiy tarmoqlarda kiberterrorizm”.</p> <p>3-guruh: "Kiberterrorizm uchun asos nima?".</p>
I. Kirish nutqi	<p>Biz jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy taraqqiyot va doimo yangilanib turuvchi yuqori texnologiyalar, axborot va kompyuter tizimlari asrida yashayapmiz. Kompyuterlar va telekommunikatsiya tizimlari barcha sohalarda qo‘llaniladi. Axborotlashtirish jadal rivojlanmoqda va yagona axborot makonini yaratishga olib keladi. Biroq shuni aytish mumkinki, internet uyushgan jinoiy guruhlarini oziqlanadigan yangi muhitga aylandi.</p> <p>Anonimlik va chegaralarning yo‘qligi internetni bosqinchilar qo‘lida samarali qurolga aylantiradi va bunday jinoyatlarni tergov qilish va oldini olish huquq-tartibot idoralari xodimlari uchun haqiqiy muammo hisoblanadi.</p> <p>Shu bilan birga, internetdan foydalanuvchilarning yoshi ham yil sayin qisqarib bormoqda, bugungi kunda hatto maktab talabalari ham har kuni internetdan foydalanadilar, turli ma’lumotlarni oladilar, uzatadilar, saqlaydilar, lekin bu ma’lumotlardan kim va qanday foydalanishi mumkinligini so‘ramaydilar. Shu sababli, ushbu</p>

	masalalarni yoritib beradigan seminar-trening shaklidagi tadbirlarni o‘tkazish kerak.
Seminar-treningni tashkil etish bosqichlari:	
1-bosqich. (Tayyorgarlik)	<ul style="list-style-type: none"> • Talab qilinadigan materiallarni tayyorlash: axborot manbalari ro‘yxati, talabalarning g‘oyalari va qiziqishlarini aniqlash uchun o‘qituvchi taqdimoti, talabalar taqdimoti, risola, baholash jadvali va ishni baholash mezonlari. • Kompyuter sinfida dars vaqtini aniqlang. • Jadvalda maslahatlashuvlar va individual darslar vaqtini belgilang. • Kerakli jihozlarni (proektor, ekran) muhokama qiling. • Talabalar o‘z ishlarini qanday yig‘ishlarini va qaerda saqlashlarini aniqlang. • Talabalar ishlaydigan wikipediya.uz saytiga ma’lumotni tayyorlang. • Broshyura shablonini tayyorlang.
2-bosqich. (Asosiy)	<ul style="list-style-type: none"> • Talabalarning tayyorgarligini anketalar yordamida baholash. Talabalarning g‘oyalari va qiziqishlarini aniqlash uchun taqdimot o‘tkazish. • “Kiberterrorizm tahdidlari” mavzusida material taqdimoti. • Talabalarni ishni baholash mezonlari bilan tanishtirish. • Seminar-trening mavzularni taqsimlash, talabalar bilan maslahatlashish. • Amaliy ishlarni bajarish. • Talabalarga maslahat yordami, talabalar ishini muhokama qilish va tuzatish. • Tadqiqot rejasini ishlab chiqish. • Turli manbalardan tadqiqot mavzulari bo‘yicha material tanlash. • Tadqiqot natijalarini taqdimot shaklida shakllantirish.
3-bosqich. (Yakuniy)	<ul style="list-style-type: none"> • Yakuniy seminar-treningni o‘tkazish. • Talabalar ishini baholash.

	<ul style="list-style-type: none"> • Seminar-trening natijalari haqidagi ma'lumotlarni wikipediya.uz sahifaga joylashtirish. • Seminar-trening taqdimotini taqdim etish.
Seminar-trening bo'yicha xulosa	<p>Hozirgi davr yoshlarning axborot ta'siriga berilishi eng zaif bo'lib, kiberhujumlar keltirib chiqaradigan tahdidlar haqida to'liq tushunchaga ega emaslar.</p> <p>Ushbu seminar-trening mashg'uloti talabalarga ma'lumotni himoya qilish muhimligini tushunishga imkon beradi va kiberterror guruhlarini faoliyatiga aralashmaslikka yordam beradi.</p>
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	<ol style="list-style-type: none"> 1. Багдеева В.А. Проблемы международной киберпреступности // Актуальные проблемы российского права. - 2009. - № 3(12). - С. 564-572. 2. Всестороннее исследование проблемы киберпреступности // Управление Организации Объединенных Наций по наркотикам и преступности. Проект, февраль 2013. Вена, 2013. - С. 153. 3. ООО "ГикБрейнс" // Самые громкие кибератаки 21 века 15.06.2016 URL: https://geekbrains.ru/posts/hackers_attacks_xxi

Seminar-trening davomida talabalar muammoli vaziyatga o'z munosabatini namoyon etishi bilan birgalikda atrof-muhit hamda o'z-o'zini baholash imkoniga ega bo'ldilar. Shuningdek, o'zining xatti-xarakatlari va uning oqibatlarini uchun shaxsan javobgar bo'lishi; o'zlaridagi salbiy odatlarni bartaraf etib borishga erishadilar.

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani axborot texnologiyalari orqali shakllantirishda talabalarning o'z-o'zlarini anglashlari, tahlil qilishlari, turli axborotlardan to'g'ri va oqilona foydalanishni baholashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzularga e'tibor qaratiladigan bo'linsa, ularning barchasi umummilliy qadriyatlarni yoshlarda shakllantirishga qaratilgan. Zero, umummilliy qadriyatlar har qanday salbiy axborotlarga qarshi kurashishning yagona va ishonchli vositasi.

Talabalarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samarali shakli bu - turli to'garaklar, fan kechalari,

ko'rik-tanlovlar, seminar-treninglar, virtual klublar, sohaga oid tashkiliy ishlar.

Talaba-yoshlar innovatsion g'oyalari va ixtirolari bo'yicha turli tanlovlarni talabalar bilan tashkil etishda ko'proq ularning axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Ushbu tanlovlar talabalar uchun o'z qobiliyat va iqtidorini namoyon etish vositasi bo'libgina qolmay, balki ularda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning rivojlanishiga olib keladi. Bu bilan ularda fikrlashi va idrok etishi, axborot madaniyatining rivojlanishi, optimal qaror qabul qilish malakasi, mantiqiy tafakkurlash qobiliyati va madaniyatining rivojlanishi, dunyoqarashining oshishi, kommunikativ qobiliyati, estetik tarbiyasi, o'z-o'zini anglash salohiyatining oshishi rivojlanadi [119]. Shu sababli bunday tadbirlarni o'quv yili davomida ko'plab marotaba tashkil etish lozim bo'ladi.

O'quv-tarbiya jarayonida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning guruhlarda ishlash shakli - ijodiy to'garaklar ta'lim oluvchilar faoliyatlarini tashkil qilishning shunday shakli, u o'quv jarayonini bevosita to'ldiradi, talabani o'quv mashg'ulotlarida egallagan bilimlarini amalda sinab ko'rish, boyitishga xizmat qiladi, kasbiy bilimlarini boyitadi. Ayniqsa, talabani bo'sh vaqti to'garak mashg'ulotlarida samarali tashkil etiladi [115].

Kompyuter texnologiyalarini o'quv ta'lim-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etishda, yoshlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishida ma'ruza mashg'ulotlariga alohida e'tibor beriladi. Bu o'qitish metodi oliy ta'limda muhim o'qitish shakllaridan biri hisoblanadi. Ma'ruza pedagog mahoratiga bog'liq holda turli ko'rinish va mazmunga ega. Ma'ruza samarasi o'qitishning boshqa shakllariga qiyoslanganda yuqori.

Ma'ruza matnining elektron variantlari. Ma'ruzaning elektron matni hozirgi turli xil kompyuter dasturlaridan foydalanib, oldindan ko'zda tutilgan har xil maqsadlarga muvofiq shakllantiriladi. Elektron matni tayyorlash avvalo uni kompyuter xotirasiga yozish bilan boshlanadi. Shu jarayonda foydalanilayotgan kompyuter dasturi imkoniyatlariga muvofiq ma'ruza matni bilan turli xil operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Bunda asosiy tamoyil shu matni o'qish, tushunish idrok qilish imkoniyat darajasida qulay bo'lishini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak.

Elektron matn va multimedia materiallaridan guruhli va yakka tartibda foydalanish shakllari mavjud. Guruhli shakldagi materiallar auditoriyadagi tinglovchilar guruhiga namoyish qilish imkoniyatini beruvchi ekran orqali ko'rsatiladi.

Yakka tartibda foydalanish bir tinglovchining bitta kompyuterdan alohida foydalanishini nazarda tutadi. Bu shakllarning, birinchisidan tinglovchilar bilan o'quv mashg'ulotlarni o'tkazishda; ikkinchisidan, kutubxonada yakka mutoala jarayonida foydalanish mumkin.

Ma'ruzaning elektron matni yoki uning multimedia materiallaridan kutubxonada yakka tartibda foydalanish mavzuni mustaqil o'qib, o'rganish orqali mazmunini chuqur o'zlashtirishga sharoit yaratadi. Bunday materiallardan uzoq masofalarga uzatish va masofadan turib o'qitish jarayonini tashkil qilish mumkin. Bu materiallardan samarali foydalanishni tashkil qilishning o'ziga xos sharti – undan foydalanuvchilar kompyuter savodxonligi bo'yicha zarur tayyorgarlikka ega bo'lishlari talab qilinishidan iborat.

Ma'ruzaning elektron materiallari ma'lumotlarni mujassamlashtirib, ta'lim jarayonini matn, videotasvir, animatsiya, multiplikatsiya, ovoz va musiqa yordamida amalga oshirish orqali voqea-hodisalarni va ma'lumotlarni obrazli va hayotiy ko'rinishda ekranda namoyish qilish imkonini beradi.

Elektron ma'ruza matnlari oddiy ma'ruzalardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: ular kompyuterda tayyorlanadi va turli tashuvchilarga yozilgan holda saqlanadi; ulardan tezkorlik bilan nusxa olish va ko'paytirish mumkin; ularni er yuzining turli xududlariga uzatish mumkin; ulardan bir vaqtning o'zida ko'p foydalanuvchilar foydalana oladi; ulardan foydalanish vaqt, masofa va xududga bog'liq emas.

Elektron ma'ruza matnlarini tayyorlashda quyidagi talablarni hisobga olish lozim:

- elektron ma'ruza matni ma'ruzaning maqsadi, vazifalarini asosiy (kalit) tushunchalarini yaqqol namoyish etishi kerak;

- ma'lumotlarni turli manbadan olish va zaruriyat tug'ilganda tegishli manbalarga murojat qilish mumkin bo'lsin;

- mavzu mazmuni ochishda tezkor kundalik ma'lumotlardan foydalanish, jonli, tushunarli, hayotiy tarzda bayon qilish, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish zarur;

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o'qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi:

1. Ma'ruza (kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza) mashg'ulotlari.

2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo'ljallangan) darslari.

3. Modulli dars.

4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.

5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

6. Didaktik o'yinli darslar.

7. Masofaviy darslar [120].

Masofadan ta'lim – zamonaviy axborot – kommunikatsion texnologiyalari vositasida masofadan turib ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish orqali ma'lum fan yoki soha bo'yicha o'qitish shakli bo'lib, an'anaviy ta'limga nisbatan o'ziga xos afzalliklarga ega. U bir vaqtning o'zida jamoaning keng qatlamiga ta'lim berishda qo'l keladi. Fan-texnika rivojlanishi tufayli talabalarga berilishi zarur bo'lgan axborot miqdori nihoyat darajada ko'payib bormoqda.

Bu axborotlarni talabalarga an'anaviy usul va vositalar yordamida etkazib berish murakkab vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda talabalarga bilim berish jarayonida masofadan turib o'qitish juda zarur vositalardan biri bo'lib, jahon miqiyosida bu sohada katta yutuqlarga erishilmoqda.


Moodle - bu sayt tarkibiga kiruvchi boshqarish tizimi bo'lib, o'qituvchining onlayn-kurs yordamida dars berishiga mo'ljallangan tizim. Moodle tizimi, asosan, modulli ob'ektga mo'ljallangan dinamik ta'lim muhitini boshqarish tizimi bo'lib hisoblanadi. Moodle tizimining asoschisi Avstraliyaning Curtin universiteti "Kompyuter ilmi va ta'limi" yo'nalishi o'qituvchisi M. Dougiamas bo'lib, u bu sistemani yaratish g'oyasini 1999 yilda ilgari surdi va 2002 yilda Moodle 1.0 tizimini yaratdi. Moodle - masofadan ta'limni boshqarish tizimining bugungi kunda jahonning 200 ga yaqin mamlakatlarda 70 tilga mo'ljallangan 46 mingdan ortiq ta'lim portallari bo'lib, unga 2 mln.ga yaqin foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tkazilgan va ular 300 dan ortiq ishlab chiqaruvchi dasturchilarni o'zida mujassamlashtirgan (2.2.5-rasm).

Moodle tizimini quyidagi maqsadlarda ishlatish mumkin: masofaviy ta'lim uchun, bunda o'qituvchi va talaba ko'p vaqtda yuzma-yuz uchrashmasdan ta'lim olib boriladi; ta'limning masofaviy qo'llab-quvvatlanishi elektron ta'lim vositalari asosida talabalar Moodle tizimidan foydalangan holda topshiriqlarni olishi va ularni tekshirish uchun yuborishlari mumkin; amaliy topshiriqlarning, testlarning bajarilishi elektron ta'lim tizimi Moodle da o'quv mashg'ulotlari vaqtida amalga oshiriladi. Moodle tizimi quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

o'qituvchi va talabaga ta'lim olish uchun qulay vaqt va joyni tanlash imkoniyatining mavjudligi; bilimning puxta o'zlashtirilishi; o'qituvchi va talabaning kerak bo'lgan vaqtdagina muloqotda bo'lishi.

Agar talaba topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib borsa, u o'qituvchi bilan muloqotda bo'lib boradi. Ta'limning individualligi; vaqt va pulning tejalishi-o'quv mashg'uloti uchun vaqt va pulning sarflanishiga zaruriyat bo'lmaydi.

Masofali o'qitish tartibi o'z ichiga beshta umumdidaktik o'qitish metodlarini qamrab oladi: axborotli-retseptiv, reproduktiv, muammoli ifoda etish, evristik va tadqiqot. Ular o'qituvchi va bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro harakatlari pedagogik aktlarining butun to'plamlarini o'z ichiga qamrab oladi.



2.2.5-rasm. Masofadan o'qitish sxemasi

Masofaviy ta'limning o'quv-uslubiy bazasini shakllantirishda quyidagi prinsiplarni asosiy qilib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- didaktik jihatdan foydaliligi;
- ketma-ketlik va tizimlashganligi;
- modullilik;

- ko‘p darajalilik;
- kognitivlilik;
- moslashuvchanlik;

Yuqoridagi prinsiplar ichida eng asosiysi didaktik foydalilik hisoblanadi, chunki boshqa prinsiplar bu prinsip asosida shakllanuvchi va uni to‘ldiruvchi prinsiplar hisoblanadi [99].

Didaktik foydalilik - qo‘yilgan ta’limiy maqsadga erishishda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta’minot xususiyatidir. Bu o‘quvchining yoshi, bilim olish layoqati, psixo-fiziologik tizimining faolligi talablarini hisobga olib, ta’lim mazmuni tarkibini shakllantirish darajasi bilan aniqlanadi.

Masofaviy ta’lim didaktik ta’minoti tarkibi va tuzilishi yuqoridagi prinsiplar asosida yaratilishi va amalga oshiriladigan masofaviy ta’lim texnologiyasi mazmunini belgilashi lozim. Didaktik ta’minotni yaratishda turli xil usullardan foydalaniladi. Didaktik ta’minot tuzilishining funksional asosini quyidagi ikki qismga ajratishimiz mumkin: mazmuniy va boshqaruvchi.

Masofaviy ta’lim tizimida o‘qitish maqsadini samarali va kafolatli ta’minlashning asosini o‘quv jarayoni modeli tashkil etadi.

O‘quv jarayonini quyidagi 3 ta model bilan izohlash mumkin: o‘qitish; mashq qilish; emotsional-intellektual muloqat.

Masofali o‘qitish o‘qituvchi bilan bevosita aloqani inkor qiladi. O‘qitish va emotsional-intellektual muloqat modeli o‘qituvchi dasturning asosi hisoblanmish ta’lim berish modeli bilan almashinadi.

Masofaviy ta’limda avtomatlashgan didaktik ta’minot talab etiladi. Avtomatlashgan didaktik ta’minot 2 ta tarkibdan iborat: didaktik va funksional ta’minot. Didaktik ta’minot- aniq fan mazmuni bo‘yicha o‘quv-metodik jamlanmalardan iborat.

Funksional ta’minot - o‘quv mazmunini o‘rganishni modellashtirish imkonini beradi va pedagogik hamda texnologik qismlardan iborat bo‘ladi.

Pedagogik qismi – pedagogik maqsadga erishish uchun maqsadga va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik metodlar va texnologiyalar majmuasi. Texnologik qism - pedagogik maqsadga erishish uchun foydalaniladigan texnik vositalar tarkibi. Texnologik qism pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalarining birlashuvi natijasida vujudga keladi.

O‘qituvchi va bo‘lajak o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa turiga ko‘ra masofali ta’lim metodlarini quyidagi muhim guruhlarga ajratish mumkin: mustaqil ta’lim metodi; «yakkama-yakka» pedagogik metodi; «yakka - jamoa» ta’lim metodi; aloqa asosida «jamoajamoa» ta’lim metodi.

yoʻnalishdagi fanlar: matematika, fizika, biologiya, geografiya va h.k. lar uchun ham juda qiziqarli, interfaol testlar tuzish imkoniyati mavjud. Undan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham oʻtkazish imkoniyati va elektron pochta orqali yoʻllab yuborish imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamonaviy taʼlim talablariga ham javob bera oladi.

Yuqorida keltirilgan imkoniyatlardan ushbu dasturdan elektron darslik, elektron vositalar yaratishda foydalanish qulayligi koʻrinib turibdi. Elektron testlar orqali talabalarni mavzularning maʼlum bobi tugaganda yoki yangi mavzuni mustahkamlashda qoʻllash yaxshi samara beradi. iSpring dasturidan barcha fan oʻqituvchilari foydalanishlari mumkin. Test dasturi orqali bir vaqtda guruh talabalarining barchasi baholanadi. Vaqtdan yutiladi. Talabalarlar yoʻl qoʻygan xato va kamchiliklarini bilib oladilar.

II.3-§. Boʻlajak oʻqituvchilarni sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib didaktik oʻyinlar tashkil etish va ularni oʻtkazish

Taʼlim-tarbiyaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi oʻqitishning axborotni elektron vositalari orqali uzatish, qayta ishlash va undan foydalanishga asoslangan yangi metod va shakllarining paydo boʻlishiga zamin yaratdi. Shuningdek, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, oʻqitishning elektron vositalari (oʻquv-metodik multimedia materiallari, masofadan amaliyot ishlari, kompyuter yordamida testlar, elektron darsliklar va qoʻllanmalar hamda kompyuterda didaktik oʻyinlar va hokazo) asosida ishlab chiqilgan materiallardan foydalangan holda, tashkil etiladigan anʼanaviy dars shakllarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi[118].

Shuning uchun taʼlim-tarbiyaviy jarayonda turli koʻrinishdagi didaktik oʻyinlardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Taʼlim maqsadlariga qaratilgan didaktik oʻyinlar taʼlim-tarbiyaning zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalar orasida muhim ahamiyatga ega. Taʼlim-tarbiya maqsadiga qaratilgan didaktik oʻyinlar metod sifatida XX asrning 70-yillarida keng tarqala boshlangan. Hozirgi davrda qoʻllanilish sohasiga bogʻliq ravishda turli modifikatsiyali didaktik oʻyinlar taʼlim-tarbiya amaliyotiga joriy etilgan.

Taʼlim-tarbiyaviy jarayonda foydalaniladigan didaktik oʻyinlar (oʻquv oʻyinlari) koʻngilochar oʻyinlardan oʻzining maqsad-mohiyati va yoʻnalish

usuli bilan farq qiladi, ya'ni o'quv o'yinlari muayyan bosqichning yakuni, yangi o'quv masalasining paydo bo'lishiga olib keladi [120]. Modomiki shunday ekan, o'quv o'yinlari o'quv faoliyatining muayyan bir ta'limiy vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadigan alohida bir shakli sifatida qaralishi mumkin. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, didaktik o'yin – bu shartli vaziyatlarda subyekt uchun qiziqarli bo'lgan o'quv faoliyati. Binobarin, o'qitish – ijtimoiy-tarixiy tajribani maqsadli ravishda yetkazish, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanishi uchun muhit va shart-sharoitni tashkil etish jarayoni ekan. Aytish joizki, didaktik o'yin subyektning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanishiga yo'naltirilgan shartli interfaol faoliyati.

Didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya oluvchilarning yangi materialni o'zlashtirish, mustahkamlash yoki olingan bilimlarni takomillashtirish davomida diqqatni zarur darajada jamlashlarini ta'minlash hamda bilishga motivatsiya beruvchi vositasi sifatida ham qaralishi mumkin. Taassufki, hozircha faqat umumiy o'rta ta'lim maktablaridagina bunday yondashuvlarni doimiy ravishda kuzatish mumkin, xolos[118]. Shunisi ham borki, keyingi vaqtlarda didaktik o'yinlarni joriy etish amaliyotiga oliy ta'lim muassasalari ham qiziqish bildirmoqdalar: didaktik kompyuter o'yinlari mavzusiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari olib borilmoqda, ilmiy ishlar, jurnallar, konferensiya materiallari to'plamlari nashr etilmoqda, bu borada mutaxassislar tayyorlashga kirishilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qitishning verbal va ratsional metod hamda vositalaridan juda ko'p foydalanilganligi va ta'lim oluvchining hissiy xususiyatlari e'tiborga olinmagani uchun ko'p tanqidga uchradi. Didaktik o'yinlar shaxs bilish faoliyatining hissiy va ratsional ko'rinishlarini umumlashtiradi.

O'quv o'yinlari 3 ta muhim funksiyani bajaradi:

1. Vositaviy (instrumental) funksiya: muayyan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

2. Bilish (gnostik) funksiyasi: ta'lim oluvchilarda fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish.

3. Ijtimoiy-psixologik funksiya: ta'lim oluvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.

Har bir funksiya o'quv o'yinining muayyan ko'rinishi orqali amalga oshiriladi: vositaviy (instrumental) funksiya – mashqli o'yinlarda, bilish (gnostik) funksiya – didaktik o'yinlarda, uchinchi funksiya esa rolli o'yinlarda namoyon bo'ladi.

Qayd etish lozimki, o'quv o'yinlarida mashg'ulot faqatgina o'yin

o‘ynashdan iborat bo‘lib qolmaydi: o‘quv o‘yinlari davomida guruhli va individual ishlar amalga oshiriladi; muhokama va bahs-munozara uyushtiriladi, so‘rov va testlar o‘tkaziladi; rol bajarishni taqozo etadigan vaziyatlar yaratiladi. Boshqacha aytganda, o‘quv o‘yinlari «aqliy hujum», o‘qish va yozish yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, so‘rovnoma o‘tkazish, refleksiya kabi metodlarni uyg‘un holda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan bir qatorda o‘quv o‘yinlari amaliyoti pedagogikada bir qadar o‘ziga xosliklarga ega. O‘qitish jarayonida ko‘pincha o‘yin yordamchi element – nazariy materiallarni to‘ldiruvchi sifatida qo‘llaniladi va o‘qitishning asosiy metodi sifatida qaralmaydi. Ammo boshqa tomondan, tadqiqot ishlarining ko‘rsatishicha, o‘quv o‘yinlaridan foydalanish natijasida ta’lim samaradorligi o‘rtacha 3 barobar oshishi kuzatilgan[118].

Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘yinlar texnologiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Oliy ta’lim muassasalarda kompyuter o‘yinlaridan foydalanish talabalarning o‘quv faoliyatini jadallashtirish va o‘quv jarayonlarining samaradorligini ta’minlash zaruratlarini keltirib chiqaradi.

O‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi o‘yinlarni tashkil qilish, ya’ni o‘yinda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogikani o‘zaro uyg‘unlashtirish murakkab jarayon hisoblanadi. (2.3.6-rasm)



2.3.6-rasm. O‘yinli darslarni o‘qitish jarayonida didaktik funksiyalar

Ta'lim xususiyatiga ega bo'lgan kompyuter o'yinlari mantiqni rivojlantiradi, diqqatni jamlash, muhim elementga e'tibor qaratish va qisqa fursat ichida hal qiluvchi qaror qabul qila olish kabi sifatlarni takomillashtiradi. Bulardan tashqari, kompyuter o'yinlari yangi o'quv materialini o'zlashtirishning barcha bosqichlarida va nazoratda qo'llanilishi mumkin: xoh u o'quv materialini bilan dastlabki tanishuv bo'lsin, xoh o'tilgan mavzuni mustahkamlash bo'lsin. O'yinga xos bo'lgan elementlardan o'quv kompyuter dasturlarining barcha shakllarida foydalanish maqsadga muvofiq[118].

Masalan, bilimlarni charxlash bo'yicha o'yinda topshiriqlar uchta murakkablikda bo'lishi va shunga muvofiq holda bilimni o'zlashtirishning uchta darajasini ta'minlashi mumkin:

1. Oddiy yoki soddalashtirilgan - o'zlashtirish darajasi belgilanadi.

2. Bir qadar murakkablashtirilgan (mozaikali testlar, ruletka, labirint va boshqa shu kabi o'yinlar) va intellektual boshqotirma o'yinlar (chaynvord, krossvord, kross-chaynvord, sharada, ollvord, metagramma, anagramma, logogrif, polindrom, rebus, kriptogramma) – bilimni oshirishga qaratilish darajasi.

3. Juda murakkab – mahsuldorlikni belgilovchi daraja.

Axborot texnologiyalari kursi bo'yicha yangi avlod o'quv-metodik majmua elektron tashkil etuvchilari (komponentlari) namunaviy maketining asosiy mundarijaviy elementlari, tuzilmasi va tarkibini ishlab chiqish vazifasi asosida – "Axborot texnologiyalari asoslari" elektron qo'llanmasi, "Ta'lim-tarbiya va salomatlik" sohaviy dasturi asosida o'yinli multimediyaviy elementlar vositasida foydalaniladigan andozalar ishlab chiqildi. Ushbu andozalar bir nechta ob'ektdan faqat bittasini (ramz, timsol, so'z, tasvir, ovoz, video, animatsiya va shu kabilar) tanlashni nazarda tutuvchi test topshiriqlariga asoslangan bo'lib, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonlarda pedagogik texnologiyalarning quyidagi usullaridan foydalanish nazarda tutiladi:

-o'qish, ko'rish va eshitish orqali (Insert metodida ko'zda tutilgan usullar);

-klasterlarga taqsimlab tashlash;

-fishboun (baliq skeleti);

-Sinkveyn metodi;

-B – B – B (Bilaman – bilishni istayman – bilib olaman) jadvali.

Aynan uchinchi murakkablik darajasiga ega bo'lgan didaktik o'yinlarda bilimlarni o'zlashtirish faqat bilib olish, tushunish va uzatishlar

orqaligina bo'lmay, mahorat va idrok etish darajasida amalga oshadi. Uchinchi murakkablik darajasiga ega bo'lgan bunday dasturlarni ishlab chiqish test topshiriqlari va savollardan iborat bo'lgan dasturlarni tuzishga nisbatan juda qiyin, albatta.

Modomiki, didaktik kompyuter o'yinlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan zamonaviy ta'lim vositalari ekan, ularni ta'lim vositalarini tasniflashning oddiy metodlariga muvofiq ravishda tasniflash mumkin. Tasniflashning bu usuli A.A. Vagin tomonidan taklif etilgan va P.V. Gor tomonidan takomillashtirilgan[118]. Bu tadqiqotchilar tasniflashni bilim manbai metodiga asoslanib amalga oshirishni va o'qitishning og'zaki, matnli bosma, ko'rgazmali va amaliy metodlarini taklif etishgan.

Og'zaki o'qitish metodikasiga muvofiq keladigan o'yinlarga "Musiqani top" teleo'yini loyihasi asosida ishlab chiqilgan o'yinlarni misol keltirish mumkin. Bu turga kiruvchi o'yinlar talabalarning musiqali asarlarni ovoz orqali ajratish va shu orqali musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga qaratiladi. Bu xildagi o'yinlar o'quv materialini verbal o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan talabalar uchun ayniqsa foydalidir.

Bosma matnli o'qitish metodiga xos bo'lgan o'yinlarga turli vordlarni (krossvord, chaynvord, skanvord, ollvord) kiritish mumkin. Talabalarga har xil murakkablik va mavzudagi elektron shakldagi krossvordlarni kompyuter yordamida yechish taklif etiladi. Buning natijasida talabada (to'g'ri javobni topa olmagan taqdirda) axborot axtarish, internet tarmoqlaridan maqsadli foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.

Ko'rgazmali o'qitishda kompyuter o'yinlari – bu mozaika ko'rinishidagi o'yin bo'lib, unda talabalarga alohida parcha tasvirlardan yagona va yaxlit tasvir hosil qilish taklif etiladi. Mazkur o'yin turi tarixiy shajarashunoslik, san'at asarlari tarixi, tarixiy obidalar, mashhur shaxslarning faoliyatini o'rganishda muhimdir[118].

O'qitishning amaliy metodiga xos bo'lgan o'yin turlariga "Kim millioner bo'lishni xohlaydi?", "Zinama-zina", "Zakovat" teleo'yinlari loyihasiga asoslangan o'yinlarni kiritish mumkin. Bunday o'yinlar talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. O'yinda yana bir ahamiyatli holat shuki, savollar sekin-astalik bilan murakkablashib boradi: bu esa talabada qiziqish va motivatsiyaning ortishiga sabab bo'ladi. Bu turdagi o'yinlar o'zlashtirilgan materiallarni mustahkamlash va sinovdan o'tkazish uchun qiziqarli hamda ishonchli vositadir.

Shunday vazifalar majmuasidan biri "An'anaviy krossvord"dir. Uning dasturiy ta'minoti krossvord topshiriqlarini qog'ozda emas, kompyuter

monitorida bajarishni ko'zda tutadi. Qog'ozdagi krossvordlardan farqli ravishda, asosiy o'quv quroli sifatida qalam emas, balki klaviatura va sichqonchadan foydalaniladi. Elektron krossvordlarni tuzish, yechish va ishlab chiqishni amalga oshirish uchun instrumental o'yin vositalaridan foydalanish talabning tafakkurini oshiradi, o'z fikrini sodda, mukammal ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi.

Shunday qilib, aytish mumkinki, kompyuter o'yinlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish sohaning eng muhim masalalarini hal etish imkonini beradi. Ya'ni talabada motivatsiyani rivojlantirish, refleksiyaning shakllantirish, fikrlash qobiliyatini oshirish, o'zlashtirilgan bilimlarni o'z o'rnida qo'llay bilish va shu kabilarda muhim o'rin tutadi. Kompyuter o'yinlarining yanada mahsuldorligiga erishish uchun modellashtiruvchi dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, mazkur dasturlarda talabning maqsadga erishishi bilan o'yin natijalari o'rtasida o'zaro uyg'unlik ko'zda tutilmaydi hamda o'yin davomida o'rganib borish tamoyilining ustivorligiga asoslaniladi[118].

Shuningdek, kompyuterda didaktik o'yinlardan foydalanishda:

-taqdim etiladigan topshiriqlarning muayyan auditoriya talabalari tomonidan qabul qilinishi va unga qiziqish bildirilishi;

-aniq bir vazifaning javob variantlarini taqdim etishda har bir talabada ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar asosida tasavvur hosil qilishni ko'zda tutish;

-tuzilgan vazifalar va savollarning talaba tasavvuri, bilim va tushunchalari doirasida bo'lishiga erishish va shu kabi omillar hisobga olinishi lozim.

Demak, didaktik o'yinlar yordamida bo'lajak o'qituvchilar egallagan bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini amaliyotga qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

II.4-§. Bo'lajak o'qituvchilarni axborot texnologiyalari asosida sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ekstremizm va terrorizmning salbiy ta'siri

Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murossasizlik tashkil etadi. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda talaba-yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir, degan edi, – Prezident SH.M. Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentyabrda bo'lib o'tgan 72-sessiyasidagi nutqida.

Darhaqiqat, 2018-yilning iyun oyida Qonunchilik palatasi tomonidan ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi farmoni Senat tomonidan ma'qullandi. Ushbu Qonunda ekstremizmga aloqador tushunchalarga ta'riflar berildi, unga qarshi kurashning asosiy prinsiplari ko'rsatib o'tildi.

Ekstremizm – ijtimoiy-siyosiy vaziyatni berqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi.

Estremist – ekstremistik faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etayotgan, shuningdek, ekstremistik faoliyatda ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoxud O'zbekiston Respublikasi xududi orqali harakatlanishni amalga oshirgan shaxs.

Ekstremistik material – ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga oshkora da'vat qiladigan yoxud shunday faoliyatni amalga oshirish zarurligini asoslab beradigan yoki oqlaydigan, tarqatish uchun mo'ljallangan hujjat yoki har qanday vositadagi boshqa axborot.

Ekstremistik guruh – oldindan til biriktirib ekstremistik faoliyatni amalga oshirayotgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilayotgan ikki yoki undan ortiq shaxs.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidaviy ahqomlarni rad etish va o'z g'oyalarni murossasizlik va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyot. Ya'ni diniy firqa va sektalar yoki ayrim dindorlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid bo'lgan g'oyalarni targ'ib qilish va shunday g'oyalarga mos faoliyat olib boishdir.

Nima sababdan inson ongi hamda fan-texnika yuksak darajada taraqqiy qilgan XXI asrga kelib ham dunyoning turli mintaqalarida, davlatlar o'rtasida, ayniqsa, musulmon mamlakatlari ichida turli qonli urush-janjal, kelishmovchiliklar mavjud? Umuman, jahonda turli mojarolarni keltirib chiqarishdan maqsad nima va bu mojarolardan kimlar manfaatdor? Turli mintaqalardagi terroristlarni kim mablag' bilan ta'minlab, qo'llab-quvvatlab turibdi?

Javob: Albatta, ahli kitoblar yashaydigan aksar yurtlardagi bu kabi notinchliklarning asl sabablari Hakim sifatli zot (ilmu hikmat sohibi) bo'lmish Alloh taoloning bir O'zigagina ayon!

Barcha olamlarning Parvardigori Alloh taolo biz insonlar, hatto tasavvurimizga ham sig'dira olmaydigan bu mo'jizaviy dunyomizni yaratdi. Yaratgan dunyosida yashash qonun-qoidalari uchun bu dunyoda yashash qo'llanmalari bo'lmish ilohiy kitobini tushirdi. Ana endi, er yuzida qanday yashash ixtiyor-erkinlik berilgan bandalarning o'zlariga bog'liq!

Xoliq va Alim sifatli (xalq etuvchi va bilguvchi) zot – Alloh taoloning o'zigagina bu yaratgan olamning barcha sir-sanoatlarini, mavjud voqeahodisalarning sabab va oqibatlarini ojiz bandalariga qaraganda bilguvchiroqdir! Avvalo, Alloh taolo Qur'oni karimda odamlarning ba'zilarini ba'zilar bilan daf etib turmasa, dunyoda fisqu fasod, vayrona ko'payishi haqida: "... Agar Alloh odamlarning ba'zilarini ba'zilar bilan daf etib turmas ekan, albatta, Alloh nomi ko'p zikr qilinadigan (rohoblarda) uzlatgohlar, (nasroniylarda) butxonalar, (yahudiylarda) ibodatxonalar va (musulmonlarda) masjidlar vayron qilingan bo'lur edi. Albatta, Alloh o'ziga (diniga) yordam beradiganlarga yordam berur. SHubhasiz, Alloh kuchli va qudratlidir!"[Haj, 43.] – deb marhamat qiladi[107].

Biz bilamizki, hozirgi globallashayotgan dunyoda davlatlar bir-birlari bilan yer maydonlarini bosib olish uchun urushmaydilar, balki arzon xom ashyo, bozor va eng asosiysi pul, mol-mulk uchun kurashmoqdalar. Musulmon davlatlarining katta ko'pchiligini esa Alloh taolo strategik, energetik xom ashyo bo'lmish yer osti boyliklari bilan juda ham siylagan.

Giperkorporatsiyalar boshqarayotgan ayrim rivojlangan davlatlardagi qudratli kuchlar maqsadlari yo'lida o'zlarining buyruq va ko'rsatmalariga bo'ysunmagan davlatlardagi turli millat va dinlar o'rtasiga nizo solish orqali ularni "avval ajratib tashla, keyin ular ustidan hukmronlik qil!" qoidasiga amal qilgan holda, dunyoda keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarmoqdalar.

Hozirgi kunda din omilidan foydalanish ko‘proq boyishni istovchi tashqi kuchlar uchun jahonga hukmronlik qilish kabi siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda eng qulay mafkuraviy vositaga aylanib qoldi. Eng yomoni, musulmon mamlakatlarida, odatda, terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmagan hamda xalqni o‘z ortidan ergashtira olmaganligi sababli ham tashqi kuchlar aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanib, yovuz niyatlarini amalga oshirmoqdalar. Aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklardan foydalangan holda mamlakatda davlat to‘ntarishini amalga oshirmoqdalar yoki bo‘lmasa, fuqarolar urushini tashkil qilmoqdalar.

Og‘ir iqtisodiy va ma‘naviy inqirozni boshidan kechirayotgan, bu xildagi mojarolardan manfaatdor bo‘lgan G‘arb davlatlari, avvalo, yosh avlod ongiga eng zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta’sir ko‘rsatib, ongini zaharlab, katta mablag‘lar evaziga mamlakatlarda tartibsizliklarni uyushtirmoqdalar. SHu maqsadda ular, avvalo, yollanma jangari-terroristlarni qurol-yarog‘, pul mablag‘lari bilan ta‘minlab va tayyorlab, shundan keyin ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish maqsadida, ularni dunyoning turli nuqtalariga yo‘llab turibdilar. Keyin esa o‘zlariga tegishli ommaviy axborot vositalari orqali butun dunyoga islom ekstremizmi xavfi haqida bong urmoqdalar.

Aniqlanishicha, hozir er yuzida 500 ga yaqin terroristik tashkilotlar mavjud bo‘lib, ulardan 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritmoqdalar. Bularga misol qilib “al-Qoida”, “Hizbut-tahrir”, “Boko haram” (Nigeriya), “Abu Sayyof” (Filippin), “Lashkari jihod” (Indoneziya), “Ansor ash-shari’a” (Liviya), “Qurolli islomiy harakat” (Jazoir), “Islom davlati” (2006 yildan) “Iroq Islom davlati”, 2013 yildan, “Iroq SHom Islom davlati”, 2014 yildan “Islom davlati” deb nomlangan) kabilarni kiritish mumkin. “Islom davlati” terrorchilik uyushmasi – islom dini bilan dunyoni qo‘rqitish maqsadida yaratilgan loyiha.

Takfiriylar jamoalar dinni niqob qilib, islom olamida musulmonlarning boshlariga kulfatlar solishmoqda. Ularning dastidan begunoh bolalar, qariyalar va ayollarning umri hazon bo‘lmoqda. Ular odamlar gavjum joylarda, bozorlarda, hatto juma kunlari odamlar ibodat qilish uchun to‘planadigan masjidlarda terrorlik amaliyotini o‘tkazib, begunoh insonlarni portlatib yuborishdan ham tap tortishmayapti.

Maqsadlari yo‘lida ular aholiga hanafiylik mazhabiga zid mutaassib g‘oyalarni singdirish, hukumatga tazyiq o‘tkazish, aholi ichida qo‘rquv, parokandalik hamda davlatga nisbatan ishonchsizlik uyg‘onish hamda

mamlakat rahbariyati tomonidan diniy sohada olib borilayotgan siyosatni obro'sizlantirish kabi maqsadlarga bo'ysundirilgan faoliyat olib borishmoqda. Shu bois mustaqil davlatimizning gullab-yashnayotganini ko'rolmayotgan turli g'alamislarning "da'vat"lariga uchmay, mustaqil O'zbekistondagi tinchlikning qadriga etish, uni asrab-avaylash kerak!

"Siz zinhor zolim kimsalarning qilayotgan ishlaridan Allohni g'ofil, deb hisoblamang! Faqat Alloh ularni (jazolashni) ko'zlar (dahshatdan" qotib qoladigan kunga (Qiyomatga) qoldirmoqda, xolos" [Ibrohim, 42.] [107].

Endi, Markaziy Osiyoda, qolaversa, O'zbekistonimizdagi tinchlik va farovonlikni ko'rolmayotgan ekstremistik tashkilotlarni aniqlab olsak. Chunki dushmanning kimligini va qaerdan chiqayotganligini bilmasdan turib unga qarshi qanday kurashish mumkin?

Markaziy Osiyoda terroristik oqimlarning shakllanishi

Soxta Islom inqilobini eksport qilish g'oyasi XX asrning 30-yillarida Hasan al-Banno tomonidan bayon qilingan edi. Natijada, Markaziy Osiyo Respublikalarida xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan jihodchi shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug'ullanadigan guruhlar paydo bo'ldi.

Jihodchilar musulmon mamlakatlarida hukumat va amaldagi qonunlarni tan olmaslikni targ'ib qilib, o'zlarining fitnalariga ergashmagan musulmonlarni imonsizlikda ayblamoqdalar. Lekin Islom dinida hech kimga ahli qibla musulmon birodarini "kofir", "dinsiz" deb hukm chiqarish huquqi berilmagan.

Jihod – so'zi (arabcha – g'ayrat qilish, kuchni ishga solish) lug'atda inson tomonidan jamiki imkoniyatni ishga solib, istalgan maqsadga erishish yo'lida harakat qilish, ma'nosini anglatadi. Hanafiy ulamolarning yakdil fikriga ko'ra, eng yaxshi jihod – bu nafsga qarshi jihod sanaladi. Hozirgi kunda dunyoda o'z-o'zini portlatish usuli bilan terrorchilikni amalga oshirishga erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham jalb qilinmoqda. Haddan oshgan takfirchilar o'zini portlatib, ko'plab begunoh odamlarning o'limiga sabab bo'layotganlarni shahidlar deb da'vo qilishmoqda. Bundan tashqari, qonxo'r terroristlarga o'zini bag'ishlab, ularning jinsiy ehtiyojlarini qondirish yo'li bilan jangovar ruhini ko'tarib, yomon-munkar ishlarga rag'batlantiruvchi qadimiy kasb egalari – "intim jihodchi ayollar" paydo bo'lganiga nima deysiz? Ba'zi jihodchi ayollar terroristlar guruhi a'zolarining "xizmatlarini" navbati bilan qilib bo'lishgach, vafot etgan

turmush o'rtoblari bilan tez kunda "jannatda ko'rishish" niyatida "shahidlik belbog'i"ni bog'lab, jihodchi-kamikadzelik qilisharkan.

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilinadi; Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: "Kim tog'dan qulab, o'zini o'ldirsa, u do'zax o'tida abadiy tog'dan qulab azoblanadi. Kimki zahar ichib, o'zini o'ldirsa, u do'zax o'tida abadiy qo'lidagi zaharni ichib azoblanadi. Kimki o'zini temir bilan urib o'ldirsa, u do'zax o'tida abadiy qo'lidagi temirni qorniga urib azoblanadi" [112]. Shu o'rinda, mo'may pul ishlab kelish ilinjida chet ellarga ketib ishlayotgan ba'zi yoshlarimiz diniy-ekstremistik oqimlarga qo'shib qolayotgani, uyga qaytgach, yon-atrofdagilarga yot g'oyalarni targ'ib qilayotgani, yurtga hiyonat yo'lida o'tgan holatlarini ta'kidlash lozim.

Yurti va millatiga hiyonat qilish, begunoh odamlarning qonini to'kish og'ir gunoh bo'lib, bunday kimsalar ilohiy omonatga xiyonat qilgan bo'ladilar va buning uchun ular, albatta, bu dunyoda ham, Qiyomatda ham jazolanadilar!

Livanlik olim Muhammad Sammok "Musulmonlar va zamonaviy qarama-qarshilik" nomli kitobida: "Terror arab ixtirosi yoki islomiy bad'at emas, balki zamonaviy asrda siyosiy iztiroblar natijasida yuzaga kelgan nafratning bir ko'rinishi. Aslida terror ikki asr oldin yuzaga kelgan", deb tushuntiradi.

Aslida, terror ko'rinishlari Rossiyada Emilyan Pugachyov, Stepan Razin boshchiligidagi davlatga qarshi qo'zg'alon ko'rinishda, keyinchalik Vladimir Ilich Lenin boshchiligidagi bolsheviklar inqilobi sifatida ancha oldin namoyon bo'lgan.

Musulmon olamidagi bugungi kunda barchani hayratga va tashvishga solib turgan terrorning kelib chiqishiga XX asrning 80-yillari boshlarida sobiq SSSR davlatining Afg'onistonga qilgan qurolli bosqini ham sabab bo'ldi. Musulmon yurtlari Islom dinining ta'sir kuchini yaxshi bilgan kapitalistik davlatlar bunday o'z maqsadlari yo'lida, vaqtida, unumli foydalandilar.

G'arb davlatlari o'zlariga yaqin musulmon davlatlarini Sovetlarga, kommunistlarga qarshi jihod qilishga, afg'on dindoshlarga shu tariqa yordam berishga chaqirdilar. Buning natijasida, XX asrning 80-yillari boshlarida avvalo, arab ekstremistik tashkilotlarining sa'y-harakatlari bilan xorijda terroristik markazlar shakllana boshladi. Afg'onistonda ham jihodiy terroristik tashkilotlar tuzildi. Dunyoning turli o'lkalaridan kelgan va Pokistonda tashkil qilingan jangarilar tayyorlovchi lagerlarda tayyorgarlikdan o'tgan minglab ilmsiz "musulmon jihodchi"lar Peshovarga etib kela boshladilar. 10 yillar davom qilgan bu qonli urush

natijasida qudratli Sovet Ittifoqi engildi. Sovet davlati qurolli kuchlarini Afg'onistondan olib chiqib ketganidan keyin ham bu urushlar to'xtamadi. Endi mujohidlar va tolibonlar o'zaro siyosiy hokimiyat va boylik uchun kurasha boshladilar. Buning uchun ular, avvalo, bir-birlarini kofirlikda ayblay boshladilar, chunki, Islom dini ta'limoti bo'yicha musulmon musulmonning qonini to'kish mumkin emas edi-da! Islomiy davlat qurish g'oyasi ham o'sha paytlardayoq paydo bo'la boshlagan edi. Chet ellardan kelgan jihodchilar vatanlariga qaytgach, o'zlarida ham jihod qilib, Islomiy davlat qurish kerak, degan xulosaga keldilar. Chunki odam o'ldirib osongina, mo'may pul topishga o'rgangan yigitlar endilikda dehqonchilik qilishni, qurilishda yoki bo'lmasa dastgoh oldida 7-8 soatlab ishlab, pul topishni istamas edilar.

Ommaviy axborot vositalarida "Diniy ekstremizm", "Islom terrorchilari", "Diniy aqidaparast", "Islom fundamentalizmi" kabi yangicha atamalar paydo bo'la boshladi. Dinni yomonotlik qilishga urinishlar, Islomofobiya (Islom dini bilan qo'rqitish) kuchayib ketdi. Natijada, musulmon deganda, ko'z oldimizga soqol qo'yib, bo'yniga avtomat osgan, qo'li qonga belangan iflos jangari keladigan bo'ldi. Qisqasi, o'sha Islom dinidan savodi yo'q bemazhablarning qay zamonda va makonda, qanday holda va kimlar bilan yashayotganlarini o'ylamasdan qilgan harakatlari natijasida Islom diniga hamda musulmonlarga katta zararlar etkazildi va hozirda ham bu ahvol davom qilmoqda.

Mintaqamizda barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga urinayotgan bir qancha takfiriylar jamoalar mavjud bo'lib, faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik guruhlar qatoriga "Turkiston Islom harakati", "Hizbut - tahrir", "Akromiylar", "Nurchilar", "Tablig'ichlar" guruhlarini kiritish mumkin. Ular yoshlarimizni Islom ahkomlarini o'rgatish bahonasida o'z saflariga jalb qilib, keyinchalik ularga bosqichma-bosqich dunyoviy jamiyat va an'anaviy xanafiylik mazhabiga zid g'oyalarni singdirishga harakat qildilar.

Markaziy Osiyo Respublikalari mustaqillikka erishgan 1990 yillarining boshlarida bu guruhlar faollashib ketdilar. Xususan, "Islom lashkari", "Tavba", "Adolat" guruhlari Farg'ona vodiysida beqaror holatni yuzaga keltirish uchun harakat qildilar.

Alloh taolo "... ularga: "Er yuzida fasod (buzg'unchilik) qilmangiz!" – deyilsa, ular: "Albatta, biz chin islohchilarmiz" [2-Baqara: 11-12], – deyidilar. Ogoh bo'lingki, aynan ularning o'zlari buzg'unchilar, lekin buni o'zlari sezmaydilar" – deb marhamat qiladi [107; 3-b] [107].

“Turkiston Islom harakati” guruhi 1996 yili tashkil topgan. Uning tarkibiga 1992-1993 yillari faoliyatiga barham berilgan qator diniy-ekstremistik guruhlarining faollari kirgan. Guruhning harakat dasturi – qurol kuchi bilan Markaziy Osiyoda “Buyuk Islom xalifaligini” tiklash, mazkur jarayonga Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volgabo‘yi Respublikalarini jalb qilishni nazarda tutadi. O‘zbekistondagi ichki siyosiy vaziyatni izdan chiqarish uchun vosita sifatida qo‘poruvchilik, terrorchilik harakatlarini amalga oshirish va turli ig‘volarni tarqatishdan foydalandilar.

“Hizbut-tahrir al-islomiy” (“Islom ozodlik partiyasi”) tashkilotiga 1953 yil Falastinda Taqiyuddin Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan. Dastavval o‘ziga Falastinni yahudiylardan ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoniy, keyinchalik: “Musulmon davlatlarini birlashtiruvchi xalifalik davlatini qurish – partiyaning strategiyasi”, - deb e‘lon qildi. Arab davlatlarida quvg‘inga uchragach, bosh qarorgohini Angliya davlatining London shahriga ko‘chirdi. Hizbning halifasi Ato Abu Rashta (Rushta)ning o‘zi esa Daniyada yashaydi.

“Akromiyalar” asoschisi – Akrom Yo‘ldoshev (1963 yili Andijon shahrida tug‘ilgan) “jihodchilar”ning g‘oyaviy rahnamosi Abduvali Mirzaev shogirdlaridan bo‘lib, 1990 yillarda “Hizbut tahrir”ning mahalliy rahbari Abdurashid Qosimovdan saboq olgan.

“Nurchilar” – Turkiyada vujudga kelgan diniy-milliy harakat bo‘lib, asoschisi diniy ulamo Said Nursiy (1873-1960) hisoblanadi. “Nurchilar” harakati 1945 yildan tashkilot sifatida shakllangan bo‘lib, uning mafkurasini Said Nursiyning (taxallusi “Badiuzzamon” – arabcha “zamon bayrog‘i”) “Risolai Nur” nomi bilan to‘plangan diniy-ma‘naviy mazmundagi asarlari va Qur‘onning ba‘zi oyatlariga bag‘ishlangan tafsirlari tashkil etadi.

“Nurchilar”ning asosiy talablari:

1. Islom – davlat dini, deb e‘lon qilinishi hamda Qur‘oni karim Konstitutsiyaning asosi bo‘lishi kerak.
2. Dunyoviy hukumat faqat ijro va muhofaza funksiyasi bilan chegaralanishi lozim.
3. Hukumatning faoliyatini maxsus diniy ulamolar kengashi nazorat qilishi lozim.
4. Davlat musulmon dunyosining tarkibiy qismiga aylanishi va xristian dunyosi bilan aloqalarini qat‘iy chegaralashi shart.

“Feto”chilar guruhi Turkiyada ta‘qiqlangan. Guruhning hozirgi kundagi g‘oyaviy rahnamosi Fathulloh Gulen AQShning Panselvaniya shtatida yashamoqda. Dunyoda 160 dan oshiq maktabi bor.

“Salafiylar” hijriy VII asr oxirlarida Ahmad ibn Taymiya al-Harraniy (hijriy 661-728) boshchiligida imom Ash‘ariy rahmatullohi alayhning

aqidaviy islohotlarini rad qilish bilan o‘rtaga chiqqan toifa. Salafiylarning shiori: “Islomni qayta jonlantirish, salaflar yo‘liga qaytish!”.

Salafiylarning iddaolari:

1. Qur’oni karim – qadim va azaliy emas, balki Alloh taolo tomonidan yaratilgan.

2. Rasululloh alayhissalomning qabrlarini ziyorat qilib saqlash shirk, bid’at va zalolat.

3. Mavlid un nabiy bayrami ham bid’at va befoyda narsa.

4. Aziz avliyolar qabrlarini, umuman qabrlarni ziyorat qilish – bid’at bo‘lib, bu narsa johiliyat davrlaridagi butsanamlarga sig‘inishni eslatadi.

5. Islom ahkamlari zamon talabiga ko‘ra emas, balki salafi solihlar davri – hijriy sananing dastlabki uch asriga mosravishda bajarilishi kerak!

6. Islom – jamiyat qurilishi va davlatchilikning asosi bo‘lishi kerak!

7. Hokimiyat tepasiga “haqiqiy musulmonlar”ni chiqarish uchun faol harakat qilish kerak!

Hozirgi “salafiylik” etakchilarining maqsadlari:

Odamlar ongidan milliy qadriyat va urf odatlarni chiqarib tashlash, muqaddas joylarni ziyorat etishni ta’qiqlash; erkak va ayollar tomonidan shariat ahkamlari ko‘r-ko‘rona amal qilinishini ta’minlash, amal qilmaganlarga nisbatan qattiq jazo qo‘llash; davlat qonunlarini Qur’oni karim va sunnat talablariga moslashtirish. “Tablig‘chilar” (arabcha – etkazish, da’vat qilish) salafiylik islom mafkurasini tashviqot qilish va uning tarafdorlarini ko‘paytirish orqali islomning ta’sirini butun dunyoga yoyishni maqsad qiladi.

“Jamiyati tablig‘i islomiy” tashkilotiga Muhammad Ilyos Kandehlaviy (1885-1944) tomonidan 1927 yilda Hindistonning Dehli shahriga yaqin joydagi Mevat degan joyda asos solingan. “Tablig‘chilar” e’tiqodning har qanday shakllariga, taraqqiyotning har qanday shakli Islomga to‘g‘ri kelmasligini ta’kidlaydilar.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan niyatlari nopok bo‘lgan tashkilotlar va ayrim shaxslar o‘zlarini qanchalik dinimiz fidoyilari qilib ko‘rsatishmasin, muqaddas Islom dinimiz ular “hijrat” deb nomlayotgan vatanfuroshlikdan, “jihod” deb da’vo qilayotgan begunoh insonlar qonini to‘kishlikdan, “shahidlik” deb nomlayotgan o‘zini va atrofdagilarni portlatib o‘ldirishdek gunoh ishlardan mutlaqo pokdir.

1990-yillardan boshlab shayx Yusuf Qarzoviy, shayx Muhammad G‘azzoliy, shayx Said Ramazon Butiy, shayx Zuhayliy, shayx Abdulloh Bilbeya, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rahimahulloh hazratlari kabi islom olamining e’tiborli ulamolari, terroristik xurujlarning

noto'g'ri amal ekanligi haqida kitoblar yozib, keng jamoatchilikka ma'ruzalar qildilar. Masalan, shayx Ramazon Butiy o'zining "Jihodi fiqhiy" kitobida terror va zo'ravonlik harakatlarining shar'an noto'g'ri amal ekanligining 10 ta sababini ochib ko'rsatdi:

1. Terrorchi tashkilotlar Xoliq va xalqni rozi qilamiz, hokimiyatni olamiz, deb jihod va zo'ravonlik bilan xalqning noroziligiga, nafratiga sababchi bo'lishmoqda. Qurolli jamoa a'zolari o'zlarini: Biz musulmonmiz, falonchi oyatga, asosan, vojib amalni qilyapmiz, deb ta'kidlab, jamiyatda Islomga qarshi kayfiyatning (islomofobiya) tug'ilishiga sababchi bo'lishmoqda.

2. Kalomullohdagi "Robbingizning yo'li (dini)ga hikmat va chiroyli nasihat bilan da'vat eting! Ular bilan eng go'zal uslubda munozara qiling!" [Nahl, 125.] oyatiga, asosan, Alloh taoloning to'g'ri yo'lga zo'ravonlik bilan da'vat qilish ta'qiqlangan[107].

3. Nihoyat, bu terrorchi tashkilotlar askari va politsiyasi mavjud "zolim" hukumatni, qudratli tuzumni ag'darishga ojizlik, zaiflik qilishayotganligini o'zlari ham tan olib aytishmoqda.

4. Jihodchilar natijasi bo'lmaydigan ishga harakat qilib, o'zlarini ham, boshqalarni ham halok qilishayotganini e'tirof qilishmoqda. "O'zingizni o'zingiz halokatga yo'liqtirmang!"

5. "Kimda-kim qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g'azab qilgay, la'natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo'ygay" [4-Niso, 93.] oyatiga, asosan, musulmlarni o'ldirish harom! Joylarda takfir qilinganlar bilan bir qatorda begunoh musulmonlarning ham qoni to'kilmoqda[107].

6. Kofir bandaning shahodat kalimasini aytishi, murtadning tavba qilib islomga qaytishi, osiy-gunohkorning tavba qilib, to'g'ri yo'lga qaytishiga imkoni borligi tan olinmadi.

7. Jihodchi tashkilotlar xalqqa yordam berayapmiz deb, nafaqat ahli kitoblarga, balki, Islom diniga, musulmonchilikka katta zarar berishmoqda. SHu tariqa terrorchilar keng xalq ommasining nafratiga sababchi bo'lishmoqda.

8. Tarixdan ma'lumki, hokimga jizya (zakot, soliq) to'layotgan ahli zimma, ahli kitoblarga nisbatan zulm qilish islom shariatiga ko'ra mumkin emas. Islomiy fath – butunlay boshqa narsa!

9. Islomiy da'vatning etkazilmaganligi, ya'ni sof Islomga da'vat qilinmaganligi ham terror va zo'ravonlik harakatlarining shar'an noto'g'ri amal ekanligini ko'rsatadi.

10. Sulh tuzishga harakat qilish – jihoddan afzal. Jihoddan maqsad aslida tinchlik, farovonlik hisoblanadi.

Ushbu sa'y-harakatlar natijasida 1997 yili Misrda "Islom jihodi" tashkiloti a'zolari ustidan bo'layotgan sudda, jehodchilar "Zo'ravonlik harakatlarini to'xtatish tashabbusi" bilan chiqib, terror va suiqasd amallarini to'xtatganliklari xususida ommaviy axborot vositalari vakillariga murojaat qilishdi.

II.5-§. Bo'lajak o'qituvchilarni axborot texnologiyalari asosida sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda missionerlar harakati va ularning salbiy oqibatlarini

Afsuski, hozirgi kunda diniy qadriyatlarimizga, ma'naviyatimizga rahna solishga, diniy mojarolarni keltirib chiqarishga intilayotgan ayrim xorijlik nopok kimsalar missionerlik yo'li bilan yurtdoshlarimizni, farzandlarimizni muqaddas Islom dinimizdan, Alloh taoloning to'g'ri yo'lidan ozdirib, o'zlarining dinlariga o'tishga targ'ib qilmoqdalar. Mustaqillik yillarida qonunlarimizda belgilangan erkinliklardan g'arazli maqsadlarida foydalanayotgan, tashqaridan suqilib kirgan turli din oqimlari o'z faoliyatlarida, asosan, etnik millat vakillarini evangellashtirishga, injillashtirishga harakat qilishmoqda.

Missioner – so'zi lotincha "mission" fe'lidan olingan bo'lib, "jo'natish, vazifa topshirish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Demak, missioner – topshirilgan vazifani bajaruvchi kishi.

Z.Husniddinov va O.Yusupovning "O'zbekiston Respublikasida diniy munosabatlar" kitobida missionerlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Missionerlik – bu boshqa diniy e'tiqodga ega bo'lgan aholini o'z diniga ag'darib olish maqsadida diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat.

Aholisining aksariyat qismi islom diniga e'tiqod qiluvchi fuqarolardan iborat O'zbekiston misolida aytish mumkinki, bunday faoliyatlar yurtimizda, asosan, noislomiy konfessiyalar, ko'p hollarda nasroniylik dini niqobidagi soxtalar tarafidan amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash zarur: da'vat boshqa, missionerlik boshqa. Bir din vakilining o'z qavmiga xitobi davlat bo'lib, har bir inson bu ishni emin-erkin bajarish mumkin. Ammo bir din vakilining boshqa dindagilarni o'z diniga og'dirish uchun qiladigan harakati esa, missionerlik deyiladi va O'zbekiston qonunlari mana shu ishni ta'qiqalaydi.

Globalashuv chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda mohiyat migratsiyasi tabiiy holat hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, er yuzidagi har 6 kishining 1 nafari mehnat migranti hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, taxminan bir milliarddan ortiq odam ko'proq pul topish, yashash sharoitini yaxshilash maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ishlash uchun boradi. Ruhiiy tushkunlikka tushgan bunday mehnat migrantlaridan missionerlar o'zlarining g'arazli maqsadlarida ustalik bilan foydalanmoqdalar. Ularni nasroniylashtirishga harakat qilmoqdalar.

Xuddi ana shunday noto'g'ri qarashlar, dinimizga yot g'oyalar singdirilgan kitob, disk, noutbuk, flesh karta, qo'l telefoni kabi jihozlarni Rossiya, Qozog'iston, ... kabi davlatlardan chegara postlari orqali O'zbekistonga olib o'tkazish holatlari bugungi kunda ham davom qilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida missionerlikning qonun yo'li bilan ta'qiqlanganligini, uning zararli oqibatlarini talaba-yoshlarimizga tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirishimiz kerak bo'ladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo xristian missionerining asosiy harakat nuqtasiga aylangan hududlardan biri hisoblanadi. Missionerlarning asosiy maqsadi, boshqa missionerlar kabi, turli yo'l va usullar bilan o'z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat, ya'ni:

1. Xalqlarni nasroniylashtirish. Shu orqali ularni ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan G'arb davlatlari ta'sir doirasiga olish. 2. Xalqlarda o'z diniga nisbatan shubha uyg'otish, ularni o'z dinidan chiqarish va dinsiz qoldirish. 3. Qadimdan nasroniy bo'lganlarni o'z dinlarida mustahkamroq turishga chorlash va ular safini "yangi nasroniylar bilan to'ldirish kabi maqsadlarini amalga oshirishda quyidagi usul, nayranglardan foydalanmoqdalar.

Insonlarga moddiy yordamlar (tibbiyot, oziq-ovqat, ...) va so'zsiz "ruhiy yordam"lar ko'rsatish; mahalliy xalq tilida, o'sha xalqning urf-odatlarini hisobga olgan holda, sifatli tayyorlangan rangli, rasmi da'vat kitobchalarini bepul tarqatish; nasroniylikni targ'ib qiluvchi audio-video kasetta va disklar, gazeta-jurnallar chiqarish va ularni joylarda tarqatish; yakka shaxslarga da'vat xatlari jo'natish; ingliz tili, kompyuter o'rgatish niqobi ostida kutubxonalar va klublarni tashkil etish; o'z yurtlariga kelgan musulmon sayohatchilarni ham nazardan chetda qoldirmaslik.

Missionerlar musulmonlarni xristianlashtirish maqsadida maxsus rejalar asosida ish olib borilmoqdalar. Masalan, ular o'zlarini mehramuruvvatli din vakillari qilib ko'rsatish maqsadida muhtojlarga pul berib turish, chet elga tekin sayohatlar uyushtirish, turli "xayriya yordamlari" ko'rsatish kabi yo'llar ularga yaqinlashib, yurtdoshlarimizni haq dindan

chiqarib, botul dinlariga kiritishga harakat qilmoqdalar. Yana missionerlar o'zlarini mehr-muruvvatli, sahiy kishilar sifatida tanitib qo'yish maqsadida "Yangi yil bayrami", "Navro'z bayrami" kabi xalqimizning chiroyli bayramlarida insonlarga hayr-exsonlar qilib, bundan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar. Ushbu nayranglar ta'siri ostida imoni mustahkam bo'lmagan musulmon kishi boshqa dinni qabul qiladi yoki bo'lmasa boshqa dinni ham haq yo'lida, deb o'ylab boshlaydi yo kamida o'z diniga bo'lgan sadoqati yo'qoladi. Ba'zi vatandoshlarimizning ularga ergashib ketayotganligining sabablaridan yana biri ularning islom dinimiz yo'l-yo'riqlaridan bexabarligidir. Mana shu bo'shliqni missionerlar uddaburonlik bilan to'ldirishmoqda.

O'zbekistonda talabalarni axborot texnologiyalari asosida sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga omillarni tashkil qilish, rivojlantirish va boshqarishni hayotga tatbiq qilish, yuksak ma'naviyatli va axloqli talaba-yoshlarni sog'lom tarbiyalab yetkazish imkoniyatini beradi. Bunday talaba-yoshlar, birinchidan, chuqur bilimli, o'z kasblarining mohir mutaxassislari, axloqli barkamol ma'naviy go'zal, xorijiy tillarni biladigan, zamonaviy muomala madaniyatiga ega bo'lmoqlari zarur.

Ikkinchidan, o'z ona-Vatani, xalqini dildan sevadigan, chinakam fidoyi, Vatanni har qanday g'araz niyatli kishilardan himoya qilishga shay turadigan, uning ravnaqi yo'lida mas'uliyat bilan mehnat qila oladigan, xullas, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan vatanparvar talaba-yoshlar bo'lmoqlari darkor.

Uchinchidan, milliy o'zligini anglaydigan ona tili va vatan tarixini chuqur va mukammal biladigan, eliga muhabbati kuchli, milliy urf-odatlar, milliy an'analar, milliy rasm-rusumlar va milliy qadriyatlarni sevadigan, ularga rioya qiladigan, milliy g'ururi baland talaba-yoshlar bo'lmoqlari kerak. Shu bilan birga boshqa millat va xalqlarga ham hurmati yuksak, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati va qadr-qimmatiga yetadigan talaba-yoshlar bo'lmoqlari lozim.

To'rtinchidan, Islom dini va uning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini e'zozlovchi dindor kishilarga xayrixoh, imonli, e'tiqodli, mehr-shafqatli, lekin o'zining nuqtai nazarida qat'iy turadigan, so'zi va ishi bir halol inson bo'lmog'i zarur.

Beshinchidan, o'z ota-onasiga sadoqatli, ularga e'zoz-ikromli, g'amxo'r, o'z aka-uka, opa-singillarini yuksak insoniy milliy mezonlar asosida tarbiyalaydigan, o'z oilasiga sadoqatli, oilaparvar bo'lmog'i shart.

Oltinchidan, vijdonli, imonli, halol, pok, do'stlariga sadoqatli, qarindosh-urug'lariga, do'st-birodarlariga hurmat-e'tiborli, ochiq ko'ngilli, mehmondo'st inson bo'lmog'i lozim.

Ettinchidan, huquqiy savodxon, davlat va uning qoidalarini hurmat qiladigan va ularga to'la rioya eta oladigan, tabiatni sevadigan, uni muhofaza qilishni o'zining yuksak burchi deb hisoblaydigan, zamonaviy ekologik ma'naviyatga ega inson bo'lmog'i darkor.

Sakkizinchidan, jamiyatda va tevarak-atrofdan bo'layotgan voqealarga befarq qaray olmaydigan, har qanday zo'ravonlik va johillikka, axloqsizlikka va ma'naviy tubanlikka qarshi kurash oladigan, chinakam adolatparvar va haqiqatgo'y inson bo'lmog'i kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fazilatlar talaba-yoshlarga zo'r salohiyat baxsh etibgina qolmay, balki ularning samarali amalga oshirilishiga qulay sharoit yaratadi. Chunki sog'lom ma'naviy axloqiy barkamol talaba-yoshlarda mas'uliyat hissi yuksak, imkoniyatlari cheksiz, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi yuqori, mustaqil fikr yuritish va kreativ faoliyat yuritish ko'lami keng bo'ladi. Sog'lom ma'naviy axloqiy taraqqiyot talaba-yoshlarga o'z hayotlari mazmunini to'g'ri tushunish, hayot maqsadlarini to'g'ri va aniq belgisi, har tomonlama puxta o'ylab ish qilishga o'zi uchun, jamiyat uchun foyda keltirishga ishonch hosil qilgan holda, shaxsiy kamolotga erishish imkonini beradi. Mazkur tadbirlar ko'lami axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda imon, e'tiqod, sabr, qanoat, muhabbat, sadoqat, samimiyat, adolat kabi odob-axloq sifatlarini oshiradi. Tadqiqot jarayonida hamkorlik, modulli, loyihalovchi, rivojlantiruvchi, faoliyatli yondashuvlar negizida sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani targ'ib etuvchi muhaddis olimlarning ilmiy merosidagi pedagogik ta'sir vositalarini amaliyotga joriy etish mexanizmi ishlab chiqildi.

Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya taraqqiyot jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan yutuqlari, axborot texnologiyalari xazinasidan bahramand bo'lish, jamiyatning sog'lom ma'naviy – axloqiy hayotda faol qatnashish, jamiyatda yuz berayogan o'zgarishlar va amalga oshiriladigan islohotlarning oddiy yaratuvchisi emas, balki faol ishtirokchisi bo'lish imkonini beradi [121].

Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalari hamda asosiy yo'nalishlari

Ma'naviyat – insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlar majmui, insonning zohiriy va botiniy qiyofasi. U inson

hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikma va malakalar, odatlar tizimi. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga etaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyillik, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir [121]. U insonning umrguzaronlik mohiyati, faoliyatining tabiatini belgilab bergan va faoliyatida gavdalangan ijobiy, go'zal fazilatlar majmui. Ma'naviyatda inson qalbi, shuuri, aql-zakovati, tabiati, bilimli, madaniyati aks etadi.

Sog'lom ma'naviy –axloqiy tarbiya va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ma'naviyat, axloq yo'q joyda ma'lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo'lmaydi, insonlar jamoasining birligi – jamiyat ham bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur”, deb ta'kidlagan fikri zamirida ana shunday falsafiy mazmun yashiringan. Ma'naviyatning ahamiyatini ana shu nuqtai nazardan baholamoq kerak.

Ma'naviyat – xalqning, millatning, davlatning kuch-qudrati, buyuk kelajak sari yuksaltiruvchi mustahkam poydevori. Har qanday ishning, ijtimoiy taraqqiyotning me'mori ham, bunyodkori ham, bosh harakatlantiruvchi kuchi ham inson. Uning aql-zakovati va samarador mehnatisiz hech nima yaratilmaydi, vujudga kelmaydi. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda bilimdon, etuk malakali, yuksak aql-zakovat va istiqbol dunyoqarashga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasi sari taraqqiyotini tezlashtira oladi, O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashini ta'minlay oladi.

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning va yangi jamiyatni qurishimizning eng asosi bo'lgan sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuksaltirish hamda uni izchilik bilan hozirgi zamon talablari, milliy ruhiyatimizning ildizlariga suyangan holda yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va g'oyat muhim vazifasi. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, talaba-yoshlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z

faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yoʻlini aniq belgilashdagi oʻz fuqarolarining orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yoʻnaltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi.

Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda oʻz ifodasini topadi:

1. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini oʻzida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolarning davlat manfaatlarini birlashtiradi. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya, zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik, millatparvarlik tuygʻulari kuchli boʻladi. Bunday holat oʻz navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yoʻlida jipslashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi.

2. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya milliy ong va milliy tuygʻu, milliy gʻoyalarni shakllantiruvchi omil. Bular oʻz navbatida har bir millatning oʻz-oʻzini anglashiga, manfaatlar yagonaligini tushunishga, talaba-yoshlarda milliy gʻurur, qadr-qimmatning mustahkam dunyoqarashga aylanishiga yordam beradi.

3. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. Oʻz navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol boʻlishga yetaklaydi, shaxs, millat va davlatning taraqqiyot sari harakat qilishiga daʼvat etadi. Bu jarayonda sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi.

4. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya – aql-zakovat, solohiyat yuksakligining muhim mezon va manbai hisoblanadi. Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va maʼnaviy boyliklari darajasiga koʻtaradi.

5. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya davlat ichki hayotida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi, har qanday munozarali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruhiyatini shakllantiradi.

6. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya kishilarni subyektiv, qarindosh-urugʻchilik, mahalliychilik manfaatlarini ehtiyojlariga berilishdan saqlaydi, shaxsiy va mahalliy manfaatlarini millat hamda Vatan manfaatlariga uygʻunlashtirish muhitini vujudga keltiradi, millatning umumbashariy qadriyatlar sari intilishini kuchaytiradi.

7. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya mamlakatda adolatni qaror toptirish, insonlarni qonunlarning ijodkori va itoatkori darajasiga koʻtaradi. Qonunlar davlat, millat va shaxsning har qanday harakatining aniq meʼyori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruhdagi qadriyatlar shakllanishi mumkin boʻladi [99].

8. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya davlatning ichki hayotidagi muammolarni hal qilishning muhim omili boʻlishi bilan birga, u davlatning xalqaro hayotidagi obroʻ-eʼtiborini oshiradi, uning katta imkoniyatlarga ega ekanligini va barqaror taraqqiy etayotganligini tasdiqlaydi. Bu oʻz navbatida davlatning xalqaro hayotda harakat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

9. Sogʻlom maʼnaviy-axloqiy tarbiya – shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashi, aqliy salohiyatini oʻzida mujassamlashtiradi. U shaxs va millatning oʻzligini anglashi, milliy gʻurur, milliy iftixor, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa aʼzolariga xayrixohlik, diyonat, mehr-shafqat, poklik, halollik, vijdoniylik, rostgoʻylik, adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni oʻz ichiga oladi. Sogʻlom maʼnaviyat yoʻli – bosqichma-bosqich oʻtiladigan yoʻl boʻlib, u inson aqlini taniganidan boshlab, tafakkur, axloq va maʼrifatda kamolotga intiladi. Jamiyat maʼnaviyati, uning rivoji uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgani sayin inson maʼnaviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan.

Maʼnaviyatning tarkibiy tizimlari quyidagilar:

Axloqiy qarashlar va axloqiy taʼlim; diniy qarashlar va diniy taʼlim; badiiy qarashlar va badiiy taʼlim; falsafiy qarashlar va falsafiy taʼlim; siyosiy qarashlar va siyosiy taʼlim; huquqiy qarashlar va huquqiy taʼlim; ilmiy qarashlar va fan; tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar [115].

Yuqoridagilarning har biri tadqiq predmetiga ega. Ular maʼlum ijtimoiy vazifani bajarishga daʼvat etilgan boʻlib, jamiyat taraqqiyoti va komil maʼnaviyatli talaba-yoshlarni tarbiyalashda muhim mavqega ega.

Oila – maʼnaviyatning ilk va daxlsiz beshigi. Insonning maʼnaviy komillik maqomlariga koʻtarilishida oilaviy muhit bilan birga jamoatchilik, taʼlim tizimi, milliy mafkura va davlat faoliyati muhim oʻrin egallaydi. Ularning real harakatlari quyidagi yoʻnalish va shakllarda namoyon boʻladi:

1. Oila – jamiyatning negizi va davlat taraqqiyotining ilk manbai.

Oila – shaxs, jamoa, ijtimoiy guruh dunyoqarashlari shakllanish va ijtimoiy munosabatlar vujudga kelishning bosh asosi hisoblanadi.

Oilaning yuksak madaniyatli shaxsni shakllantirish va davlat tizimidagi tutgan muhim o‘rnidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal etishi lozim:

a) oilani shakllantirishda jamoatchilik boshqaruv institutlari rahbarlik faoliyatini kuchaytirish;

b) o‘zbek xalqining ko‘p bolalikka moyilligi va axolining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilayotganligi, o‘ziga kerak urf-odatlar, an‘analar va qadriyatlarning milliy taraqqiyotda muhim o‘rin va mavqega egaligidan oilani ijtimoiy himoya qilishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida davom ettirishni ta‘minlash;

v) axolining o‘zi yetishtiradigan mahsulotni qayta ishlab chiqarishni keng joriy qilish, yoshlarning ish bilan ta‘minlangan qismidan mamlakatimizning yirik qurilishlarida, qishloq xo‘jaligida foydalanish va ularning xorijiy mamlakatlarga shartnoma asosida yuborishni ta‘minlashni jamoat tashkilotlari davlat institutlari faoliyatining yetakchi vazifasi qilib belgilandi;

g) xotin-qizlarning farzand tarbiyasi va oilani mustahkamlashdagi alohida o‘rnini hisobga olib, ularning homiladorlik va bolani tarbiyalash davridagi belgilanadigan ta‘tillar muhlatini kengaytirish, ko‘p farzandli ayollarga tegishli imkoniyatlar beruvchi me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqish, soliqlarni imkoniyat darajasida qisqartirib borish;

d) davlat tomonidan qabul qilingan sog‘lom avlod dasturini hayotga tatbiq etishda oilaning mas‘uliyatini oshirish. O‘z sohasi bo‘yicha ishlash qobiliyatini saqlab qolgan mutaxassislardan foydalanishning me‘yoriy hujjatlarini shakllantirish;

2. Oila, maktabgacha bo‘lgan tarbiya, umumiy ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim, malaka oshirish tarmoqlari ta‘lim tizimining asosi bo‘lib, davlat taraqqiyotining har bir bosqichidagi taqdirini belgilab beradi. Bu borada quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

a) ta‘limning barcha sohalarini birlashtiruvchi, milliy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi, jahon mamlakatlarining ilg‘or tajribalarini umumlashtiruvchi davlat milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

b) shu maqsadga tegishli me‘yoriy hujjatlarni yaratish, unda belgilangan vazifalarni tashkil qilish, boshqarish va rahbarlik qilishni takomillashtirish;

v) ta‘lim tizimida ishlayotgan o‘qituvchilarning malakalarini zamon talabi darajasiga ko‘tarish, ularni o‘z kasbining nufuzini ko‘tarish “Ushbu

sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib oshira borish;

g) oliy ta'lim tizimining mamlakat aql-zakovatini shakllantiruvchi asosiy tayanch ekanligidan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni mamlakat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilish;

d) viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalarining o'z hududida mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini umumdavlat manfaatlari miqyosida qayta ko'rib chiqish, ularni yuqori malakali professor-o'qituvchi mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash;

j) umumiy ta'lim va oliy ta'lim tizimida xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish, O'zbekistonning mustaqil tizimini yaratish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rib chiqish;

z) sog'lom kadrlar tayyorlash sifatini yuksak darajaga ko'tarishning muhim omili sifatida davlatga qarashli oliy ta'lim faoliyatini takomillashtirish, bozor munosabatlari va soha raqobatini vujudga keltirish maqsadida ayrim oliy ta'lim muassasalarini boshqarish masalalarini ko'rib chiqish;

i) ijtimoiy-gumanitar fanlarning sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning asosi ekanligini e'tiborga olib, o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ularni quyidagicha izchillik bilan tashkil qilish va o'qitishni nazoratda tutish.

3. Ommaviy axborot vositalarining sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani talaba-yoshlarga targ'ib-tashviq qilish, jamiyat va hayot muammolarini o'rtaga tashlashdagi tezkorlik va omaviylik xususiyalaridan kelib chiqqan holda:

talaba-yoshlarning saviyasini ko'tarish, chinakam ma'noda to'rtinchi hokimiyat darajasiga yetkazish; Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro yaqinlashuvi bilan bog'liq bo'lgan haqiqatlarni chuqur bilish va targ'ib qilish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining mas'ulligida "Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya" nomli oylik jurnal chiqarishni yo'lga qo'yish.

4. Ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, texnika-texnologiya, davlatni idora qilish, unga rahbarlik qilish va boshqa tizimlarda chuqur bilim va boy tajribalarga ega bo'lgan kishilardan iborat ziyolilar guruhini tashkil qilish, ularning faoliyatini, yangi g'oyalar ravnaqiga safarbar etish, millat va davlat taqdiri uchun aholining umumiy mas'uliyatini oshirishga qaratish.

5. Talaba-yoshlarning moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishini

ta'minlash, mamlakatda mavjud muammolarni dadil ko'tarib chiqishda siyosiy partiyalar bilan yaqindan hamkorlik qilish, birgalikda foydali tadbirlar o'tkazish; - oila, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya to'garaklarini moddiy jihatdan ta'minlashda turli jamg'armalarning sog'lom ma'naviy – axloqiy tarbiya ishidagi faoliyatini kuchaytirish.

II bob bo'yicha xulosalar

Zamonaviy axborot texnologiyalari, ularning imkoniyatlari, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari va zaruriyatini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yutuqlaridan biri – bu multimedia komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi o'quv dasturiy vositalarining yaratilishi. Ayniqsa, amaliy ishlarni tashkil qilishda bu dasturiy vositalarning o'rni salmoqli. Multimedia vositalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda qo'llashning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

2. Axborot texnologiyalarining multimediali vositalaridan foydalanib o'qitishning an'anaviy metod bilan o'qitishga qaraganda faqrini tahlil qilganda quyidagi afzallik tomonlarini ko'rsatish mumkin: mashg'ulot davomida ma'ruzachining o'quv materiallarini tushuntirish jarayonining yengillashishi;

3. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda original o'rinda kompyuter tomonidan modellashtirilgan ob'ektning imitatsiya qilinishi va bu holat jarayonni ichkaridan kuzatishga imkon berishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda berilayotgan materiallarni takroriy holda berish imkoniyatining mavjudligi, axborot texnologiyalari asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'zlashtirish darajasining yuqorligiga erishilishi aniqlandi.

4. Multimedia vositalar bazasidla virtual stendlar tashkil qilish imkoniyatining mavjudligi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning video va audio animatsiyalar bilan boyitilib borishi hamda talabalarning mashg'ulot jarayoniga bo'lgan qiziqishining kuchayishi kuzatildi.

5. Ommaviy tarzda foydalanish, ya'ni bitta ma'lumotlar bazasidan bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ma'lumotlar bazasini tezkor ravishda o'zgartirish mumkinligi, uning zamon talablariga moslashtirib borilishi aniqlandi [85].

6. Masofadan o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish mumkinligi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda talabalarning yakka tartibda bilimni nazorat qilish imkoniyati mavjudligi kuzatildi.

7. Zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yutuqlaridan biri – bu multimedia komponentlaridan foydalanishni taxminlovchi o‘quv dasturiy vositalarining yaratilishi. Ayniqsa, fanlarni o‘qitish jarayonida amaliy ishlar tashkil etishda bu dasturiy vositalarning o‘rni salmoqli. Multimedia vositalarini amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda qo‘llash o‘qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

UMUMIY XULOSALAR

1. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish talab qiladi. Bunday munosabatlarni tashkil etmasdan qo'llanilgan har qanday ta'lim texnologiyalari kutilgan samarani bermaydi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik-didaktik asoslari Davlat ta'lim standarti hisoblanib, unda bo'lajak o'qituvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar mezoni belgilab berilgan bo'lib, ular Davlat ta'lim standarti talablaridan past bo'lmasligiga erishildi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadi – ijodiy fikrlash tafakkurini rivojlantirish bo'lib, u Davlat ta'lim standartining bosh talabi. Shu bois har bir mashg'ulotda bajarilgan topshiriqlar umumiy vaqtning 20-25% ini, ijodiy fikrlash tafakkuri asosida ish olib borilishi vaqtning 75-80% iga to'g'ri kelishi, ko'proq amaliy bilimlarni egallashlari asosida nazariy xulosalar chiqara olishlari asoslandi.

4. Bo'lajak o'qituvchilarga sog'lom ta'lim-tarbiya berishda shakllari darsda va darsdan tashqari ishlardan, ular an'anaviy, noan'anaviy darslar, tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilishidan qat'i nazar, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan to'laqonli bajarilgandagina yuqori pedagogik samara berishi, bo'lajak o'qituvchilarning bilim saviyasi, fikrlash tafakkuri hisobga olinib, tashkil qilingan mashg'ulotlar nazarda tutildi.

5. Zamonaviy axborot texnologiyalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan mushtarak holda qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyogarliligini, tarbiyaviy tadbirlar natijadorligini oshiradi.

6. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va uni boshqarish, bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish, mustaqil fikrlash tafakkurini rivojlantirishga imkon beradigan zamonaviy axborot texnologiyalarini tanlash, ularni amaliyotda qo'llash bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashlariga erishildi.

7. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish dars, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar sifati va samaradorligi oshganligi olib borilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida o'z tasdig'ini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019 yildagi Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 1059-son qarori.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 486 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: “O‘zbekiston”, 2018. - 507 b.

6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. -T.: “O‘zbekiston”, 2000. - 425 b.

7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: “O‘zbekiston”, 1997. – 384 b.

8. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyoti omili. - T.: “O‘zbekiston”, 1995. – 24 b.

9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T., 2008. -79-bet.

10. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi //Nashr uchun mas’ul: T.Risqiev. Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Aholidinov. – T.: “Sharq”, 1999. – 184 b.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

11. Abduqodirov A.A. Masofali o‘qitish modellari va ularning sinflari. //Fizika, matematika va informatika. – T.- 2004.–5-son. – B.50-56.

12. Abduqodirov A.A., Xaitov A., Shodiev R. AT. Akademik litsey va akademik litseylar uchun darslik. – T.: “O‘zbekiston”, 2002. – 144 b.

13. Allamberganova M. Interaktiv o‘quv majmualar ta’limning yangi vositasi sifatida //Xalq ta’limi. T. – 2009. – 4-son. – B. 9-14.

14. Алламбергенова М. Разработка и использование интерактивных учебных комплексов в учебном процессе // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. - Нукус. - № 3. - 2010. - С. 95-97.

15. Алламбергенова М. Методика использования интерактивных учебных комплексов по курсу информатика и информационные технологии // Молодой ученый. Ежемесячный научный журнал. - Россия. - № 8. - 2010. - С. 142 -145.

16. Azixodjaeva N.N. PT va pedagogik mahorat. O'quv qo'yullanma. - T.: TDPU, 2003. - 174 b.

17. Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования (на материале национальной программы по подготовке кадров): Автореф. ... дисс. докт. пед. наук. - Т., 2002. - 44 с.

18. Ahmedov A.B., Taylaqov N.I. Informatika. Akademik litseylar uchun darslik. - T.: "O'zbekiston", 2001. - 272 b.

19. Ахраров Ш.С. Педагогические основы формирования информа-ционной и учебно-технической будущих учителей в системе педагогического образования: Автореф. дисс. докт. пед. наук. - Т., 1994.-39 с.

20. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, R.Axlidinov, H.Saidov. - T.: "Sharq", 1999. - 205 b.

21. Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanish: Iqt. fanl. dokt. diss. ... avtoref. - T.: O'zMU, 2001. - 36 b.

22. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy AT muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish // Pedagogik ta'lim. - T. - 2004. - 1 - son. - B. 25 - 27.

23. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda ATdan foydalanish muammolari va istiqbollari // InfoCom.uz. T. - 2006. - 3 - son. - B. 64 - 65.

24. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy ATni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: "Fan", 2007. - 160 b.

25. Begimkulov U.Sh. Ta'lim muassasalarida yagona axborot-kommunikatsiya muhitini tashkil etishning metodik asoslari // Pedagogik ta'lim. -T.: -2006. - 4 - son. - B. 61 - 64.

26. Begimkulov U.Sh. Elektron o'quv-metodik majmualar va ularni yaratishga bo'lgan talabalar // Pedagogik ta'lim. -T.: - 2005. -1-son. -B. 19-21.

27. Begimkulov U.Sh. Taylaqov N.I. Ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo'nalishlari. Uzluksiz ta'lim

sifati va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand. 2008 yil 27-28 iyun.

28. Джуроев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовке в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – СПб., 1995. – 43 с.

29. Djuraev R.H., Taylaqov N.I. Axborotlashgan ta'lim muhiti – o'qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta'lim. -2004. -3 -son. -B. 3-7.

30. Eldasheva G.V. Masofali ta'lim orqali maxsus fan o'qituvchilari malakasini oshirishning o'quv-metodik ta'minotini yaratish. Ped. fan. nom. il. dar. olish uchun yoz. diss. avtoreferati. – T.: TDPU, 2011. – 26 b.

31. Ibragimov X.I., Taylaqov N.I. Yhngi avlod darsliklarini yaratishning didaktik tamoyillari // Uzluksiz ta'lim. -2004. -1-son. -B. 9-15.

32. Imomnazarov M, Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. Oliy o'quv yurtlari uchun ma'ruza matnlari. –T.: “Toshkent Islom universiteti”, 2001. -35-bet.

33. Imomnazarov M, Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. Ma'ruza matnlari. –T.: “TIU”, 2001. -80-bet.

34. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. PT asoslari. Xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanma. - T.: “O'qituvchi”, 2004. – 101 b.

35. Комаревцев Е.М. Образовательные порталы как средство систематизации и структурирования информации: Дисс. ... канд. пед. наук. – Ставрополь, 2004. – 207 с.

36. Kulanov I.B. Elektron o'quv-metodik majmualar va ularni yaratishga qo'yiladigan talablar // Xalq ta'limi. – T. – 2010. - 3-son. B. 40-45.

37. Лапчик М.П. Структура и методическая система подготовки кадров информатизации школы в педагогических ВУЗах: Дисс. ... докт. пед. наук. – М., 1999. – 382 с.

38. Lutfullaev M.X. Multimediali elektron darsliklar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish // Ta'lim va tarbiya. -2003. -3 -4-sonlar. -B. 55 -57.

39. Марахимов А.Р. Структурный синтез информационно-вычислительных сетей автоматизированных систем на основе нечетко-множественных представлений: Автореф. Дисс. ... докт. техн. наук. – Т.: ТГТУ, 2006. – 38 с.

40. Mo‘minov I., Kulanov I.B. Masofali ta’limni tashkil etish usullarini oliy ta’lim maxsus sirtqi bo‘lim o‘quv jarayonida qo‘llash: Oliy ta’limning maxsus sirtqi bo‘limida o‘quv jarayonini takomillashtirish muammolari: Respublika ilmiy anjumani. – Guliston: GulDu, 2008. – B 3-4.

41. Nosirxo‘jaev S.H. va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. Kollejlar uchun darslik. – T.: “Turpon-Iqbol”, 2009. -19-bet.

42. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... diss. avtoref. – T., 2005. – 44 b.

43. Otamurodov S. va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. Darslik. – T., “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 2002. -28-bet.

44. Olimov Sh.Sh. . Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Monografiya. – T., “Fan va texnologiya”, 2015. -126-bet.

45. Полат Е.С. Дистанционное обучение: организационные и педагогические аспекты //ИНФО. – М. – 1996. - № 3. – С. 27- 32.

46. Пряжеников Н.С. Теоретико-методологические основы активизации профессионального самоопределения: Дисс. ... док. пед. наук. – Екатеринбург, 1995. – 340 с.

47. Rasulova G.A. Talabalarni kasbiy faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash. Xalq ta’limi. – 2007. - 1-son. -B. 54-56.

48. Рашидов Х.Ф. Концепция развития системы повышения квалификации и переподготовки кадров в Республике Узбекистан. – T.: “Фан”, 1998. – 158 с.

49. Рузиев Э.И. Научно-методические основы подготовки учителей графики в высших учебных заведениях: Авторе. дис. ... докт. пед. наук. – T., 2005. – 44 с.

50. Saydahmedova D.S. Kasb-hunar kollejlarida texnik chizmachilik fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Ped. fan. nom. il. dar. olish uchun yoz. diss. avtoreferati. – T.: TDPU. 2011. – 24 b.

51. Sattorov A. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. Pedagogika instituti o‘qituvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – T. “O‘qituvchi”, 1996. - 224 b.

52. Safarova R.F. Milliy tiklanish sharoitida O‘zbekiston maktablari-da ona tili ta’limi nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan dok. ... dis. - T., 1998. -255 b.

53. Taylaqov N.I. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. 9-sinf uchun darslik. – T.: “Ijod dunyosi” nashryot uyi, 2002/ - 152 b. (-T.: “O‘zbekiston”, 2002. -152 b., qayta nashr).

54. Taylaqov N.I. Masofali o‘qitish kurslarining model va shakllari // Xalq ta’limi. – 2004. – 2-son. – B. 85-89.

55. Taylaqov N.I., Kulanov I.B. Elektron o‘quv – metodik majmualarning o‘qitish vositalari va funksional bloklari //Uzluksiz ta’lim. -T. -2008. -3-son. – B. 8-13.

56. Taylaqov N.I., Kulanov I.B., Jomurodov D. “In formatika” akademik litseylar uchun elektron o‘quv – metodik majmua //O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi rasmiy axborotnomasi: - T. – 2011. – 12 – son. – 170 b.

57. Теоретические основы создания образовательных электронных изданий, // В.М.Вымятин, С.Г.Григорьев, В.В.Гришкун. Под ред. М.И.Беляева. – Томск: ТГУ, 2002. – 84 с.

58. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2004. – 314 b.

59. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlar yangi avlodini yaratish konsepsiyasi // Karimov A.A., Imamov E.Z., Ro‘ziev K.I., Butayorov O. –T.: “Sharq”, 2002. – 16 b.

60. To‘rayeva G.E. Talaba - o‘quvchilarni tarbiyalashda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. // Monografiya. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2021. -224 b.

61. To‘rayeva G.E. Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari. // Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2017. -44 b.

62. To‘rayeva G.E. Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari. // Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2018. -28 b.

63. To‘rayeva G.E. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shakl va metodlari. // Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2018. -52 b.

64. To‘rayeva G.E. Hamkorlik pedagogikasida shaxsga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlar texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. -Toshkent: “Yangi nashr”, 2019. -40 b.

65. To‘rayeva G.E. Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishda muammolar va yechimlar. // Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Tafakkur”, 2020. -28 b.

66. To'rayeva G.E. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda masofaviy va modulli o'qitish - tarbiyalash texnologiyalari. // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Tafakkur”, 2020. -36 b..

67. To'rayeva G.E. Improving the efficiency of the educational process using computer technology // *Academicia An International Multi disciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal)* DOI: 10.5958/2249-7137.2021.01830.9. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8, August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. p.413-416.

68. To'rayeva G.E. The effectiveness of the use of computer technology in the educational process // Published by: TRANS Asian Research Journals AJMR: Asian Journal of Multidimensional Research (A Double Blind Refereed & Peer Reviewed International Journal) ISSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 8, August, 2021 DOI:10.5958/2278-4853.2021.00609.1 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699. p. 90-93.

69. To'rayeva G.E. Person-centered technology of collaborative education. // *Current research journal of pedagogics* 2(8): 68-71, August 2021 SSN 2767-3278 ©2021 Master Journals, Published 31th August, 2021, p.68-71.

70. To'rayeva G.E. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim-tarbiya boshqaruvchisi, talaba-o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari. // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2021. -44 b.

71. Филатов О.К. Основные направления информатизации современных технологий обучения // *Информатика и образование*. - М.: № 2. -1999. -С. 2-5.

72. Hayitov A. Informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan 8 – 9 sinflar uchun didaktik mashqlar. Ped. fan. nom. ... diss. – T., 1996. – 155 b.

73. Хамдамов Р.Х. О проблеме подготовки кадров в области информационных технологий в Республике Узбекистан // *Известия Между-народной Академии наук высшей школы*. – М. - № 1. – 2002. – С. 130 – 142.

